

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

OKILOVA KAMOLA SA'DULLOYEVNA

**O'QITUVCHILARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA
MOTIVATSION TAYYORLIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH**

MONOGRAFIYA

SAMARQAND – 2023

UO'K 377:373.5

KBK 74.1

K.S.Okilova O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish. Monografiya. – Samarqand: “Bilik-ilmiy faoliyat” nashriyoti, – 2023. – 132 bet.

Monografiyada ilmiy adabiyotlar, ilmiy-tadqiqot natijalari ifodalangan manbalar tahlili va tadqiqot ishimiz natijalari asosida o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga motivatsion kompetentligini rivojlantirish pedagogik faoliyatini samarali olib borishga tayyorligi, yuksak vazifasini anglash, bilimini doimiy mukammallashtirish, o'z-o'zini o'qitishni tashkillashtirish, faoliyatidan, shuningdek, uzluksiz kasbiy rivojlanishdan subyektiv kutilmalarini ro'yobga chiqarishni ifodalovchi motivatsion, kompetentli yondashuvlarga tayyorligi tahlil qilingan.

Monografiyadan soha mutaxassislari, umumta'lim maktablar pedagog va o'qituvchilari, oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilari, ilmiy-tadqiqotchilar, o'quv dasturlari va adabiyotlari mualliflari, malaka oshirish kursi tinglovchilari hamda qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

Fayzullayeva G.Sh. –Samarqand VPYMO'MM dotsenti (PhD).

Taqrizchilar:

K.X.Xasanova, pedagogika fanlari nomzodi, professor;
A.A.Raximov – pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) dotsent.

ISBN: 978-9910-9974-3-3

© K.S.Okilova
© “Bilik-ilmiy faoliyat” nashriyoti

KIRISH

Jahonda ta’limning globallashuvi natijasida o’qituvchilarning intellektual darajalari, kasbiy mahorati, o’qitish tizimining takomillashuviga qo’yiladigan talablarining ortib borishi ularning malakasini uzluksiz oshirish va shaxsiy-kasbiy rivojlanishni rejalashtirishga e’tiborni kuchaytiradi. Rivojlangan mamlakatlar pedagogik tizimida o’qituvchining kompetentlilik darajasini o’stirish, shaxsiy samaradorlikka erishishda, avvalo, uning o’z kasbiga bo’lgan munosabati va uzluksiz kasbiy rivojlanish, jamiyatning o’zgaruvchan talablaridan kelib chiqadigan ijtimoiy buyurtmani to’laqonli bajarishda eng muhim komponent, ya’ni uning motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish dolzarb vazifa etib belgilanganligi sohani barqaror taraqqiy ettirishning ustuvorligini, keng ko’lamdagi ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyatga egaligini ko’rsatadi.

Dunyoning bir qancha universitetlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, o’qituvchilarni kasbiy rivojlantirish markazlari tomonidan mutaxassislarda kasbiga nisbatan motivatsiyani barqarorlashtirish, uzluksiy kasbiy rivojlanish(UKR)ga, mahoratini oshirishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish va unga ta’sir etuvchi ijtimoiy, psixologik, pedagogik omillarni tadqiq etish bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Sohada motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishda innovatsion va integrativ jarayonlarning ta’milanishi, ta’lim boshqaruvi hamda o’qitishda variativlik, faollashtirish, individuallashtirish, kreativlik, uyg’unlashtirish kabi tamoyillar mavjudligini, uzluksiz kasbiy rivojlanishning kompetensiyaviy, shaxsga yo’naltirilganligini hamda faoliyatli, rivojlantiruvchi, refleksiv xarakterga ega bo’lishini taqozo qiladi.

- Respublikamizda so’nggi yillarda olib borilgan keng ko’lamli islohotlar natijasida xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish (XTXUKR) tizimining moddiy-texnik bazasi, huquqiy-me’yoriy, ilmiy-metodik ta’minoti mustahkamlandi, malaka

oshirishda raqobat muhitini yaratish, uzlusizlikni ta'minlash hamda o'qitish natijalarini baholashning ta'sirchan usullari joriy etildi. Bajarilgan ishlar bilan bir qatorda o'qituvchilarda individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini mustaqil tuzish, ularda motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish orqali pedagogik faoliyatini samarali olib borishga tayyorligi, yuksak vazifasini anglash, bilimini doimiy mukammallashtirish, o'z-o'zini o'qitishni tashkillashtirish, faoliyatidan, shuningdek, uzlusiz kasbiy rivojlanishdan subyektiv kutilmalarini ro'yobga chiqarishni ifodalovchi motivatsion, kompetentli yondashuvlarga ehtiyoj tug'ilmoqda. Bu borada ta'lism-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida "...ta'lism mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish" [6], "...mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash" [7] kabi qator vazifalar belgilanib, tizimda innovatsiyalarga ochiqlik, uzlusizlik va uzviylikni ta'minlash, individuallashtirish, kompetensiyaviylik asosida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishga motivatsiyalarini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712сон, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi – taraqqiyot davrida ta'lism-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonlari, 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot

faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lif sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lif muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-sonli Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi "O'zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi 287-son, 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'lifi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. O'QITUVCHILARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA MOTIVATSION TAYYORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

1.1-§. Motivatsiya va motivatsion tayyorlik aspektining ilmiy-tadqiqot sohasi

Dunyo miqyosidagi globallashuv jarayoni natijasida yuzaga kelgan mamlakatlararo iqtisodiy va madaniy integratsiya turli soha mutaxassislarining rivojlanish davri tendensiyalarini tushunish, o'z-o'zini boshqarish, mavjud bilimlarini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni tobora kuchaytirmoqda.

Ta'lif muassasalarida o'qitish tizimi va usullaridan foydalanishni samarali tashkil qilish, muayyan yangiliklarni joriy qilishga ochiqlik, g'oyalarni, tashkilot qadriyatlarini yaratish va tizimga kiritish zaruriyatini vujudga keltiradi. Bu jarayonda umumiyl o'rta ta'lif faoliyati natijadorligini ta'minlashda pedagog xodimlarning xatti-harakatlari alohida ahamiyatga ega. Innovatsion faoliyat o'qituvchidan o'z-o'zini doimiy ravishda kasbiy rivojlantirib borishni talab qiladi, uzluksiz kasbiy rivojlanishga esa motivatsiyaning mavjudligi, uning motivatsion tayyorligi muhimdir.

Motivatsiyaning murakkab va serqirraligini tadqiq etish, ko'plab yondashuvlar orqali uning asl tabiatini, tarkibini tushunish hamda atroficha o'rganish alohida tasniflash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Aynan shu sabab motivatsiya tushunchasini ta'riflashda olimlarning turlicha tahlillashga intilganini va ularning bir-biriga o'xshamagan talqinlarini ko'rish mumkin. Ishimizda ushbu nazariyaning asosi bo'lgan motivatsiya hamda motivatsion tayyorlik aspektining konseptual asoslarini o'rganish, tahlil qilish, aniqlash hamda bugungi o'zgaruvchan ta'lif muhitida o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorligini ta'minlash maqsad qilindi.

Izlanishlarimiz davomida motivatsiya xorij amaliyotida inson xarakter-xususiyatini belgilovchi, xatti-harakatlarining kuchini ta'minlovchi psixologik jarayon sifatida o'rganilganligi va keng miqyosda o'rganilayotganligi ma'lum bo'ldi. Tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilinganida esa ba'zan motivatsiya borasidagi bir-birini inkor qiluvchi ta'riflar bilan birga, bir umumiy mazmun atrofida uzviyplashgan ta'riflar ham kuzatildi.

Motiv - 1) insonni o'qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi; 2) o'quvchining ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligi [103; 347-b.]. U shaxsdagi xulq-atvorga qaratilgan moyillik va hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi.

Motiv ilmiy termin sifatida bir qancha ta'riflarga ega, xususan, X.Xekxauzen [115] motivni fikr yuritishning mahsuli – konstruktidesa, boshqa tadqiqotchilar motivni psixologik hodisa, deb izohlaydi. E.G.Azimov [71;] va A.N.Shukinlar [121; 88-b.] motivni faoliyatga ishtiyoy uyg'otuvchi, inson ehtiyojlarini qondirishga bog'liq, tashqi va ichki shart-sharoitning hamjihatligiga asoslangan subyektni va insonlarni faollikka chaqiradigan va uning yo'nalishini belgilab beradigan hodisa sifatida ta'riflashgan.

Psixologiyada, jumladan, S.L.Rubinshteyn tomonidan shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulq-atvori, o'zini qanday tutishi, xatti-harakatning amalga oshishi motiv tushunchasi bilan bog'lab talqin qilinadi. Motiv yaqqol faoliyat nuqtayi nazaridan qaralib, unga ehtiyojli yondashuvi mazkur nazariyaning yanada boyishiga sabab bo'ldi. Olim motivning psixologik mohiyatini izohlar ekan, motivni inson faoliyatining manbasi bo'lgan va unga undab turgan jonkuyarlik, deb atagan [110]. A.N.Leontev motivlarni ikki kategoriya bo'ladi: mazmun kasb etuvchi motivlar va stimul-motivlari. Bunda birinchi kategoriya ham (ishtiyoy) uyg'otuvchi, ham mazmun kasb etuvchi vazifasini bajarsa, ikkinchisi faqat (ishtiyoy) uyg'otuvchi vazifani bajaradi [93; 202-203-b.]. Ushbu masalani yoritishda V.M.Karimova, F.A.Akramovalar ikki jihatni

farqlab ko'rsatishadi: a) ichki sabablar, ya'ni xatti-harakat egasining subyektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar); b) tashqi sabablar – faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari bo'lib, bular ayni aniq holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir [89].

Tadqiqotchi olimlar tomonidan motivlar turlicha klassifikatsiyalanadi. Ularning birida motivlar ikki xil, ya'ni birinchisi ularning kelib chiqishi va ahamiyatlilik darajasi, ikkinchisi anglanilish darajasiga ko'ra farqlangan. Shuningdek, kelib chiqishi va ahamiyatiga ko'ra birlamchi va ikkilamchi guruhlarga ajratilgan [137; 146-b.].

Birlamchi motivlarda tug'ma ehtiyojlar (ovqatlanish, ichimliklarga chanqoqlik, qulay muhit, kasallik va xavfdan qutilish, yaqinlarning farovonligi, to'siqlarni bartaraf etish, o'yin va boshqalar) ifodalansa, ikkilamchi motivlar ijtimoiylashuv (go'zallik, didlilik, poklilik, ehtiyotkorlik, qiziquvchanlik, ishonchlilik, qadr-qimmat, tejamkorlik va samaralilik, ilmlilik, xabardorlilik, ishga qobiliyatatlilik, sog'lik va universallik) jarayonida yuzaga chiqadi.

Motivlarning ikkinchi klassifikatsiyasi anglaniladigan va anglanilmaydigan motivlarga bo'linadi. Anglaniladigan motivlar shaxsning anglash vazifasiga tayanadi. Anglanilish ichki va tashqi dunyoda orttirilgan shaxsiy tajribalar bilan bog'langan. Anglanilish jarayonlari shaxsiy diqqatni yoki shaxsning ongida voqealarni anglash va mulohaza qilish qobiliyatini yaratadi. Bunda motiv ilgari sodir bo'lgan harakatdan anglanilgan bo'ladi. Miya tabiatan barcha ma'lumotlarni boshqarishi qiyin, shuning uchun ham tez-tez bajariladigan harakatlar va xulq-atvorlar keng darajada anglanilmaydigan motivlar orqali to'g'ridan to'g'ri, orttirilgan refleksiya sababli amalga oshiriladi [136; 154-156-b.].

Shu o'rinda motiv hamda motivatsiya tushunchalarini farqlab olish kerak, o'rganilgan adabiyotlarga ko'ra, motivatsiya – motivning ongli shakllantirilish jarayoni, qabilidagi mulohazalarga ko'ra,

motivlar motivatsiyaning tuzilmasini tashkil etadi, degan xulosaga kelish mumkin. Motivatsiyaga doir nazariyalar va uni ta’riflash tadqiqotlari turlicha bo’lib, faqatgina motivatsiyaning tub mohiyati qarashlar xilma-xilligini o’zida birlashtiradi va umumiy g’oya hamda zaruriy vazifa uchun xizmat qiladi.

Motivatsiya – bu odamlar va boshqa mavjudotlarning ma’lum bir vaqtida xatti-harakatini boshlashi, davom ettirishi yoki to’xtatishi sababidir. Motivatsion holatlar, odatda, subyekt ichida harakat qiluvchi, maqsadga yo’naltirilgan xatti-harakatlarga moyillikni yaratadigan kuchlar sifatida tushuniladi. Bunday paytda, ko’pincha, turli xil ruhiy holatlar bir-biri bilan raqobatlashadi va faqat eng kuchli holat amalga oshiriluvchi maqsadni belgilaydi [68; 132; 134; 135; 138]. T.Vasserman, L.Vassermanlar tomonidan ilgari surilgan qarashga ko’ra, biz biron bir ishni qilmasdan turib ham, o’zimizni biror narsa qilishga undashimiz mumkin. Bunda istak muhim bo’lib, u motivatsiyani ta’minlovchi paradigmatic ruhiy holat. Ammo boshqa turli holatlar, masalan, nima qilish kerakligi yoki niyatları haqidagi e’tiqodlar ham motivatsiya bo’lishi mumkin. Motivatsiya “motiv” so’zidan olingan bo’lib, u kishining ehtiyojlari, orzu-istiklari, maqsadlari yoki undovlarini bildiradi. Umuman olganda, motivatsiya – maqsadga erishish uchun shaxslarni harakatga undash jarayonidir. Ish maqsadlari kontekstida insonlarning xatti-harakatlarini kuchaytiradigan psixologik elementlar: ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan, mustaqil, mavqega ega bo’lish xohishini o’z ichiga olishi mumkin.

O’rganilgan va tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar talqinida motivatsion holatlarning mazmuni bo'yicha turli raqobatdosh nazariyalar taklif qilingan. Ular mazmun, ya'ni "kontent" nazariyaları sifatida tanilgan va odatda yoki har doim odamlarni qanday niyatlarga undayotganini tasvirlashga qaratilgan. Masalan, Avraam Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi va ERG nazariyasi, odamlarda motivatsiya uchun mas’ul bo’lgan ma’lum ehtiyojlar borligini ta’kidlaydi. Bularning ayrimlari, oziq-ovqat va suvgan

bo'lgan fiziologik ehtiyoj, qadrlash, e'tirof, atrofdagilarning hurmati kabi boshqa ehtiyojlardan ko'ra muhimroqdir. Shu nuqtayi nazardan, yuqori ehtiyojlar faqat quyi ehtiyojlar qondirilgandan keyingina motivatsiyani ta'minlaydi [45; 2-8-b.]. Jumladan, bixevoiristik nazariyalar ruhiy holatlarga ongli ravishda, aniq murojaat qilmasdan, xulq-atvorni faqat insondagi vaziyatlarga bog'laydilar, uni insonda ichki va tashqi kuzatilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar o'rtasidagi munosabat nuqtayi nazaridan tushuntirishga harakat qiladilar.

Bajarilayotgan va undalgan faoliyat shaxs tabiatiga mos, qiziqarli yoki zavqli bo'lsa, bunday motivatsiya ichki bo'lishi mumkin, agar kasbiy faoliyati uning fitratidan ajralib turadigan mukofot yoki maqomni, e'tirofni maqsad qilgan bo'lsa, unda tashqi xususiyatga ega bo'lishi mumkin. O'rganishlarimizda ichki motivatsiya tashqi motivatsiyadan ko'ra ko'proq foydali natijalarga olib borganligi ta'kidlangan [58; 1732-1738-b., 60; 54-67-b.].

Shuningdek, motivatsion holatlar, subyektning nima uchun shunday harakat qilishini to'liq ifodalashi yoki ifodalamasligiga qarab tasniflanishi ham mumkin, bu ongli va ongsiz motivatsiya deb ataladi. Motivatsiya amaliy ratsionallik bilan chambarchas bog'liq. Ushbu sohadagi asosiy g'oya shundan iboratki, agar ma'lum bir vazifani bajarishimiz kerak, deb hisoblasak, biz o'zimizni harakatni bajarishga undashimiz lozim. Ushbu talabning ortga surilishi, bajarilmasligi akraziya yoki irodaning zaifligi, deb ataladigan irratsionallikka olib keladi, bunda nima qilishimiz zarurligi haqidagi e'tiqodlarimiz va amaldagi harakatlarimiz o'rtasida tafovut paydo bo'ladi. Motivatsiya bo'yicha tadqiqotlar turli sohalarda qo'llanilgan va avvalo, iqtisodiyot sohasida mehnat motivatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammoli masala sifatida shakllangan, misol uchun, ish beruvchi o'z xodimlarining motivatsiyasini ta'minlash uchun har qanday (rivojlanishi uchun kerak bo'lgan) choralarни qo'llashi mumkin. Keyinchalik, ushbu tushuncha o'quvchilarning bilim olishidagi hal qiluvchi roli tufayli pedagog-psixologlarda ham

qiziqish uyg'otadi. Ushbu sohada ichki va tashqi motivatsiyaning ta'siri muhimlik darajalariga alohida e'tibor berilgan.

Ko'pgina rasmiy manbalarda motivatsiya maqsadli xatti-harakatlarga olib keladigan subyekt ichidan harakatlanuvchi kuchlar bilan bog'liq, degan ta'rif ustunlik qiladi [139]. Motivatsiyani ichki kuchlar nuqtayi nazaridan aniqlash bilan paydo bo'ladigan muammolardan biri shundaki, ularni o'lchash juda qiyin, shuning uchun empirik fikrlovchi nazariyotchilar ko'pincha kuzatiladigan xatti-harakatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ta'riflarni afzal ko'radilar.

Yondashuvlardan biri motivatsiyani hayvonlar xatti-harakatlarining moslashuvchanligi nuqtayi nazaridan tadqiq qilishga qaratilgan bo'lib, unda kemiruvchilar va hasharotlar o'rtasidagi bir xil maqsad ko'zlangan tajriba-sinov ishlari olib borilgan hamda natijada bu ikki turning yangi amaliy harakatga undalganida o'zgarishi kuzatiladi, ammo asosiy qismda kemiruvchida moslashuvchanlik motivatsiyasi kuzatilsa, hasharotlarda bunday holat kuzatilmaydi. Bu qarashlar xulosasiga ko'ra, biz kemiruvchilarga emas, yoki hasharotlarga emas, balki motivatsion holatni belgilashga haqlimiz. Ammo moslashuvchan xatti-harakatlarsiz motivatsiya holatlari borligi ham ta'kidlangan. Masalan, to'liq falaj bo'lgan odam, xatti-harakatlar bilan shug'ullana olmasa ham, motivatsiyaga ega bo'lishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, moslashuvchanlik ham yetarli motivatsiya belgisi bo'la oladi, ammo zaruriy belgi emas [52]. Ba'zi ta'riflar esa inson va hayvonlarning motivatsiyasi o'rtasida uzluksizlik, uzviylik mavjudligini ta'kidlasa, boshqalarida bu ikkalasi o'rtasidagi farq aniq ko'rsatiladi. Bunday fikrlashga, ko'pincha, inson subyektlari ma'lum sabablarga ko'ra, harakat qiladilar, mavjudotlar o'zlarining eng kuchli xohishlariga ergashadilar va o'zlarini o'zlari hosil qilgan niyatlarga bag'ishlaydilar, degan g'oya sabab bo'ladi [54; 222-226-b., 139].

Ba'zi psixologik nazariyalarda motivatsiya faqat shaxs ichida mavjud, deb da'vo qilinadi, ammo ijtimoiy-madaniy qarashlar motivatsiyani ijtimoiy guruhlarning madaniy kontekstidagi turli harakatlar va faoliyatlarda ishtirok etish natijasi sifatida ifodalaydi [42; 59].

Demak, motivatsiyaning ilmiy-nazariy asoslari, tadqiqot aspekti keng miqyosda olib borilgan kuzatuvlar, tajriba-sinov ishlarida, statistik tahlillarda bir-biridan farq qiluvchi va raqobatlashuvchi xulosalarga ega bo'lganligi bilan muammolidir. O'quv motivi, ta'lif jarayoniga tayyorlik motivatsiyasi hamda uning nafaqat rivojlanganligi, balki o'qituvchining kompetentlik sifatiga aylanishi tadqiqotimiz mohiyatiga taalluqli.

Motivatsiyaning tub mohiyatini tasniflashda ehtiyoj, motivlashtirish hamda rag'batlantirish kabi tushunchalarning mazmuniga to'xtalish o'rnlidir.

Ehtiyoj – biror narsaga bo'lgan talab; hojat, zarurat, zaruriyat, muhtojlik [127; 69-b.]. Ehtiyojlar jismoniy, idrok etilgan va idrok etilmagan turlarga ajraladi. Jismoniy ehtiyojlar – bu ish o'rni va yashash joyini o'zgartirish ehtiyoji ko'rinishida namoyon bo'lsa, idrok etilgan ehtiyojlar – mavjud bizga yoqadigan narsalargacha siljishni bildiradi, idrok etilmagan ehtiyojlar ruhiy bo'lib, bular – ichki rag'batlardir [105; 115-b.]. Umuman olganda, ehtiyojlar – bu shunday narsalarki, ular inson ichida (ichki dunyosida) paydo bo'ladi va o'rnashadi, har xil insonlar uchun yetarli darajada umumiy hamda har bir insonda o'z vaqtida ma'lum ko'rinishda individual paydo bo'la oladi [75]. Maqsadning ehtiyoj darajasiga chiqishi motivning kuchiga bog'liq.

"Motivlashtirish – ta'lif oluvchilar faoliyatini ma'lum ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, psixologik ta'sir etish yo'llari bilan maqsadga yo'naltirish" [103; 347-b.]. Motivlashtirish ta'lif-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining xatti-harakatlariga yo'nalish beradi, erishish zarur bo'lgan maqsadlarni belgilaydi. Jumladan, ta'lif-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatini

rivojlantirish, takomillashtirish yo‘nalishida harakatga keltiruvchi dinamik jarayon hisoblanadi” [103; 348-b.].

Motivlashtirish – bu ruhiy omil bo‘lib, shaxs faolligining manbayi, sababi, dalili va har xil turli ehtimollaridir. U xodimlarni jonli mehnat faoliyatiga rag‘batlantiruvchi kuchli vosita sanaladi

Shuningdek, rag‘batlantirish tushunchasi ham motivatsiyaning asosiy tarkibiy qismiga kiradi. Rag‘batlantirish – “rag‘bat” (biror ishga bo‘lgan xohish, istak, mayl, ra'y; qiziqtiruvchi, qo‘zg‘atuvchi omil, sabab; psixologiyada – inson his-tuyg‘ulari, ruhiy holatlarini rivojlantiruvchi, uni faollikka undovchi ruhiy ta’sir) va “rag‘batlanmoq” (manfaatdorlik oshuvi yoki taqdirlash natijasida biror ish, faoliyatga qiziqmoq, rag‘bati oshmoq) so‘zlarining ma’nosи umumlashgan shakl [125;. 361-362-b.]. Rag‘batlantirish – shaxsga va subyektlarga tashqi kuchlar bilan ta’sir ko‘rsatib faoliyat yuritishga undash demakdir.

Rag‘batlar ma’lum bir motivlar ta’sirini hosil qiladigan tashuvchilar rolini o‘ynaydi. Rag‘batlarga alohida predmetlar, boshqa odamlarning faoliyatları, muloqotlar, majburiyat va imkoniyatlarning tashuvchilari, yaratilgan shart-sharoitlar va ko‘pgina boshqa narsalar kirishi mumkin. Bular shaxsga ma’lum bir faoliyat natijasining kompensasiyasi sifatida taqdim etilishi ham mumkin. Demak, shaxslarni motivatsiyalash uchun turli xil rag‘batlardan foydalanish jarayoni rag‘batlantirishdir.

Motivatsiya esa inson faoliyatini boshqarishda uning axloqiy mayllaridan foydalanish, deb tushuniladi [103; 348-b.]. Motivatsiya atamasi ilk marta 1880-yillarning boshida psixologlar lug‘atida tilga olingan bo‘lsa, Vebstr akademik lug‘atida motivatsiya – “motivatsiyalash faoliyati yoki jarayon”, deya ta’riflangan [140]. Hozirgi kungacha ilmiy adabiyotlarda motivatsiya muhim omil sifatida bir necha tadqiqotlarda o‘rganilgan. Buni quyidagi jadvalda ko‘rib o‘tamiz (1.1-jadval):

1.1-jadval

Motivatsiya tushunchasining talqini

Maslou	Motivatsiya shaxsnинг biror-bir qismi, tomoni emas, balki uning butun shaxsiyatiga tegishli. Har qanday psixologik yoki fiziologik holat, tanadagi biror bir o'zgarish ham ma'lum darajada motivatsiya bilan bog'liq [98].
S.L.Rubenshteyn	Ruhiyat orqali hosil bo'ladigan determinasiya [110].
G.V.Rogova	Motivatsiya darslar samaradorligini belgilab beruvchi tarkibiy qism [109; 5-b.]
I.A.Zimnyaya	Insonning har qanday faoliyatini ishga soluvchi mexanizm [83; 410-413-b.].
O.S.Vixanskiy, A.I.Naumov	Bu insonni faoliyatga intiltiruvchi, faoliyatning shakli va chegaralarini belgilovchi hamda bu faoliyatga yo'nalish beruvchi, ma'lum maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlar yig'indisi [75; 153-b.].
A.G.Maklakov	Xatti-harakatni determinlovchi (aniqlab beruvchi) omillar sistemasi [95; 512-b.].
R.S.Nemov	Xatti-harakatni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni [100].
R.Ye.Slatin	Bu odamni harakatga keltiradigan va o'sha holatda ushlab turadigan ichki turtki, motivatsiya shaxsnинг harakatlanish yo'lini ochib beradi [141].
Nyustrom va Devis	Shaxsni harakatga undovchi kuch, valentlik, istaklar, kutuvlar hamda vositalar uning mahsuli sifatida belgilanadi [101].
Wigfiyeld, Yeccles, Rodriguez	Har qanday maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatni amalga oshirish istagi. Muvaffaqiyatga yo'naltirilgan muhitda, masalan, maktablarda, shaxsning motivatsiyasi ko'p jihatdan qilingan tanlovlarni, sarflangan sa'y-harakatlarni, vazifalarni bajarishda qat'iylikni va samarali ishlashni bashorat qilishi mumkin [69].
Deci,Ryan	Insonning biror narsani amalga oshirish uchun harakat qilishini anglatadi. Motivatsiya - bu rag'batlanishlardan ichki motivatsiyagacha bo'lgan davomiylik. Doimiy amalga oshiriladigan odatlar yig'indisi [60].
J.Jalolov	Nutqiy faoliyat ko'rsatishga moyillik, shaylik, ichki turtki, nutq mayli [81].
B.R.Samatova	Jarayon kechishida qo'llab-quvvatlovchi va kerakli shijoatni so'nishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlovchi hodisa [112; 15-b.].

Ta'lrim muassasasining umuman olganda, o'qituvchining intilishlari tashqi muhitdan kirib kelayotgan o'quvchiga, uning bilim darajasini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Shunday ekan, global

kompetentlik talab qilinayotgan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash zarurati kuchaygan bir davrda o'zgarishlarga to'g'ri yondasha olishi uchun o'qituvchi faoliyatida va uning uzluksiz kasbiy rivojlanishida motivatsiya tizimini ta'lif oluvchilarning manfaatlariga moslab ishlab chiqish hamda pedagog xodimning o'z-o'zini rivojlantirishga motivatsion tayyorlik kompetentligini takomillashtirib borish lozim. Jumladan, motivatsiyaga berilgan ta'riflarning mazmuni va izlanishlarni to'liq anglash muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda olimlarning motivatsiya mohiyatini aniqlashda murojaat qilgan, aloqadorlikda ifodalagan tushunchalari tahlil qilindi (1.2-jadval).

1.2-jadval

Tadqiqotchilarning motivatsiya tushunchasiga doir yondashuvlari mazmuni

Olimlar	Mexanizm	Jarayon	Holat	Hodisa	Turtki	Istak	Kuch
Maslou		+	+			+	
S.L.Rubenshteyn		+		+	+	+	
G.V.Rogova	+		+				+
I.A.Zimnyaya	+		+			+	
O.S.Vixanskiy, A.I.Naumov		+			+		+
A.G.Maklakov	+	+					
R.S.Nemov		+		+			
R.Ye.Slatin		+	+		+		
Nyustrom va Devis		+				+	+
Wigfiyeld, Yeccles, Rodriguez		+			+	+	+
Deci, Ryan		+	+		+		+
J.Jalolov					+	+	
B.R.Samatova				+			

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirish va tahliliy o'rganish natijasida biz motivatsiyaga ta'limiy nuqtayi nazardan quyidagi yondashuvni shakllantirdik, ya'ni motivatsiya – bu o'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan o'zining ta'lim berish va olishga,

shaxsiy hamda kasbiy manfaatlarini, o'z maqsadlariga erishishni ta'minlashga undaydigan, ehtiyojlarini uyg'otadigan va rag'batlantiradigan kuchlarning doimiy faol jarayonidir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, o'rganilgan tadqiqotlar, insonlar faoliyatini motivatsiyalashga urinishlar, umuman motivatsiya ta'riflari, ushbu tushunchaga doir talqinlar hozirgi kunda ham har bir sohada o'z shakl-shamoyiliga muvofiq davom etmoqda. Shuningdek, ta'lim sohasi taraqqiyotining asosi, tirdagi bo'lgan o'qituvchi faoliyatini motivatsiyalash jamiyatdagi o'rinni belgilashga, o'z-o'zini anglashga, ichki turkinning kuchlanishiga olib keluvchi usullardan biridir. Aynan tashqi motivatsiyalash uni ichki motiviga hamda faoliyatida uzlusiz kasbiy rivojlanishga tayyorlik motivatsiyasiga yo'naltiradi.

1.2-§. Uzlusizlik, uzviylik va o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish metodologiyasining mohiyati

Dunyoda hech bir jamiyat yo'qki, uning rivojida ham, tanazzulida ham inson omili hal qiluvchi rol o'ynamagan bo'lsin. Insonlarning jamiyatdagi o'rni esa, umumiylara taraqqiyotga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi va mamlakatlarning jahon maydonida raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy omili sifatida inson kapitalini rivojlantirishga bo'lgan zarurat, davlatlarning ta'limga oid siyosatini takomillashtirishga undamoqda. Jamiyat rivojidagi yangilanish zarurati va ehtiyoji zaminida ta'lim-tarbiya omili hamda bunda o'qituvchi asosiy poydevordir. Shu bois har bir jamiyat kelajagi uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining rivojlanish darajasi o'qituvchining mahorati bilan belgilanadi. O'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning uzlusizligi va uzviyligini ta'minlash bugungi zamonaviy ta'lim jarayonlarining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi.

- Keyingi yillarda uzluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, unga ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda umuta’lim mакtablarida ta’lim berishning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko’tarilishi bejiz emas. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning: “Agar rahbarlar, muallimlar Yangi O’zbekistonga munosib harakatlar qilsa, farzandlarimizni davr talabiga munosib o’qitishimiz mumkin. Xalqimiz bizga eng katta boyligini – surriyodini ishonib beryapti, bu juda katta mas’uliyat. Shuni his qilib, o’zimizni qiyab, mакtabni isloh qilsak, kelajakka zamin yaratamiz”, – degan ta’kidlari, shuningdek, davlatimiz rahbarining mакtab o’qituvchilarini yangi metodikalar asosida qayta tayyorlash bo’yicha umummilliy loyiha boshlanishini e’lon qilishi, ushbu yangi tizim doirasida kelgusi 3-4 yilda mакtablardagi barcha sinf o’qituvchilari yangi metodika asosida o’qitilishi, buning uchun har bir hududdagi Malaka oshirish markazlari negizida pedgoglarni yangi metodikalarga o’rgatuvchi Milliy ta’lim markazlarining tashkil etilishi borasidagi sa’y-harakatlar mavzuni yanada mustahkam g’oyaga aylantirmoqda [14; 1-b.].

Uzluksiz ta’lim tizimidagi yangilanishlar hamda mazkur ta’lim turlarining maqsadiga asosan ta’lim mazmunining belgilanishi, yangi avlod dasturlari, darsliklarining yaratilishi, shiddat bilan kirib kelayotgan o’zgarishlar – ta’lim berish muammosiga yangicha yondashuvni talab qiladi. Shu bois keyingi yillarda pedagogika va o’qitish metodikasi oldida turgan vazifalardan biri – nafaqat ta’lim turlari va bosqichlarini, balki, avvalo, mazmunni o’quvchiga singdiruvchi o’qituvchining kasbiy rivojlanishini, uning o’zgarishlarga, zamon bilan hamnafas bo’lishga motivatsion tayyorligini ta’minlashni ilmiy asoslab berishga qaratiladi.

Zero, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunida qayd qilingan “o’quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o’qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek, tegishli o’quv fanlari, kurslari, modullaridan

foydalanish, ijodiy faollik ko'rsatish" [1] talabini amalga oshirishda ham o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorligini rivojlantirish alohida o'rinni tutadi. Shu o'rinda ta'limda uzviylik va uzluksizlik tushunchalarining mohiyatiga to'xtalish o'rinni bo'ladi.

- Pedagogikada ta'limning uzviyligi va uzluksizligi tamoyiliga alohida urg'u berilishi beziz emas. "Bu tamoyil, - deb yozadi professor J.Hasanboyev, - ta'limda zarur fiziologik-psixologik qonuniyat hisoblanib, bilimni mantiqiy bog'liqlikda o'rganishni ta'minlab beradi. Har bir fan bo'yicha dasturiy va uslubiy tavsiyanomalar yaratishda joriy qilinadi va ular tushunchalar, dalillar va boshqa fikrlar orasidagi aloqadorlikdan kelib chiqqan qonun va qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o'rtasidagi mantiqiy bog'liqliklarni o'rganish orqali amalga oshiriladi" [131; 324-325-b].

Ta'limning uzluksizligi, uzviyligi g'oyasi uzoq asrlarga borib taqaladi. Jumladan, Aflatun, Suqrot, Konfutsiy, Arastu, Seneka, Beruniy, Imom al-Buxoriy va boshqa mutafakkirlar tomonidan ta'limning uzluksizligiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, Yan Amos Komenskiy uning maxsus tizimini yaratishga muvaffaq bo'ldi. U birinchi marta ta'limda ketma-ketlik, tizimlilikka asos soldi. Keyinchalik I.P.Pavlov inson oliy nerv faoliyatining muhim xususiyati bo'lgan tizimlilikning uzviylik bilan aloqadorligini tabiiy-ilmiy nuqtayi nazardan isbotladi.

Umuman olganda, uzluksizlik - o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi sifatida ta'riflansa [126; 267-b.], uzviylik esa ta'lim-tarbiya jarayonining muayyan ketma-ketlik asosida tashkil etilishini ifodalovchi muhim sifat bo'lib, u ma'lum bosqichda avvalgi bosqich o'quv faoliyati mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkamlanishi, kengaytirilishi va chuqurlashtirilishini ta'minlaydi.

O'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirishga shu nuqtayi nazaridan qaraganda, o'qituvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetentliliklariga qo'yilgan davlat talablari har bir fan kesimida alohida ko'rsatilganligi, ushbu talablarni amalga oshirishda ularning ijodkorligi, tanqidiy fikrashi, o'z ustida ishlashi, kasbiy rivojlanishda, shaxsiy samaradorlikka erishishda tizimli ishlar yo'lga qo'yilayotgan bo'lsa-da, biroq ba'zan pedagog xodimlar tomonidan olib borilayotgan ishlar ko'lamida mas'uliyatni his etmaslik holatlaridan ham ko'z yumib bo'lmaydi.

Holbuki, ta'lif amaliyoti uzluksizlik, uzviylik uni o'zlashtirish samaradorligining muhim sharti bo'lib, falsafiy, psixologik va pedagogik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, "uzviylik" kategoriysi falsafiy jihatdan "rivojlanish" kategoriysi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Rivojlanish nuqtayi nazaridan uzviylik ham sifat o'zgarishlari jarayoni, ham yangi sifatni hosil qilish maqsadida bir darajadan ikkinchi darajaga o'tish tarzida talqin etiladi, oldingi bosqichlarda qo'lga kiritilgan natijalarning rivojlanishini nazarda tutadi.

Psixologiyada uzviylik murakkab psixologik rivojlanish qonuniyatları, yosh bilan bog'liq o'zgarishlarni o'rganish; bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish; faoliyatning yetakchi turlari o'zgarishi doirasida ko'rib chiqiladi.

Pedagogik jihatdan esa uzviylik, birinchidan, didaktik tamoyil, ikkinchidan, ta'lif jarayonini samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi jarayon, harakatga keltiruvchi kuch (ta'lif jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi omil), ta'lif, rivojlanish va tarbiya jarayonida majburiy bajarilishi kerak bo'lgan talab sifatida izohlaniladi.

Ta'lif tizimida uzviylik tushunchasiga turlicha ta'riflar berilganini kuzatish mumkin. Jumladan, taniqli rus olimi B.G.Ananyev: "Ta'lifdagi uzviylik o'quvchilar fan asoslarini egallashi jarayonida olgan bilimlar tizimining vaqt nuqtayi nazaridan rivojlanishidir" [15; 23-25-b.], - deb yozsa, boshqa bir

metodist Sh.I.Ganelinning fikricha, “...uzviylik – bu o‘quvchilar tomonidan o‘rganilayotgan o‘quv materiali uchun tayanch bo‘luvchi mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarning amalda shunday qo‘llanishi va istiqbol rivojlanishidirki, ular asosida bilimlar o‘rtasida turli aloqalar yuzaga keladi, kursning asosiy g‘oyalari ochiladi, eski va yangi bilimlarning o‘zaro aloqadorligi ta’minlanadi, natijada o‘quvchilarda puxta va chuqur bilimlar tizimi shakllanadi” [17; 3-14-b.].

S.M.Godnik tadqiqotlarida esa uzviylik qonuniyat, tamoyil, omil, sharoit, usul, qoida, vosita sifatida e’tirof etiladi. Uning xulosasiga ko‘ra, “tor ma’noda uzviylik jarayoni – bu ta’limning turli bosqichlari orasidagi ketma-ketlik uzilishlarini to’ldiruvchi pedagogik namoyishlarning tartibi. Keng ma’noda bu namoyishlar pedagogik faoliyatning umumiyligi kontekstiga kiritiladi” [77]. S.M.Godnik boshqa bir asarida fikrlarini davom ettirib “pedagogik jarayon va hodisalar orasidagi uzviylik, deganda eski va yangi, yangi va eski o‘rtasidagi shunday aloqa tushuniladiki, bu sharoitda vujudga keladigan dialektik qarama-qarshiliklar mos jihatlarni tashkil qilgan aloqadorlik asosida hal qilinadi” [78], deb ta’kidlaydi. Ushbu ta’riflarning aynan biz ta’kidlamoqchi bo‘lgan ifodasi o‘qituvchini uzlucksiz kasbiy rivojlanishining muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Taniqli psixolog S.L.Rubinshteynning fikricha, uzviylikning mohiyati shundaki, o‘qitish jarayonining har bir bosqichi avvalgisining negizida yuzaga kelganligi, uning ichki sharoitini tashkil etganligi sababli barcha bosqichlar o‘rtasida o‘zaro aloqa mavjud [111].

Boshqa bir tadqiqotchi Y.A.Kustov “o‘quv bilishdagi uzviylikning mazmun-mohiyati yuqoriroq ilmiy asosdagi bilim, ko‘nikma va malakalarni kengaytirish hamda chuqurlashtirishning bosqichli jarayonida eski, yangi va istiqbol o‘rtasida zarur aloqalarni o‘rnatishdan iboratdir” [26; 63-b.], – deb ta’kidlaydi.

V.E.Tamarin va Y.Y.Zaxarovalar uzviylikning har bir yangi bosqichini o'quvchilarning mavjud tajribalariga asoslangan holda tashkil etish va shu asosda navbatdagi ta'lism o'quvchilarning ta'lism sharoitlariga moslashuvini yengillashtiruvchi maqsadlar, ta'lism mazmuni, metodlar, ta'lism-tarbiya vositalari o'rtasidagi munosabatlarini ta'minlovchi sharoit sifatida belgilagan bo'lsalar [19; 157-b., 113; 175-b.], A.V.Batarshev tomonidan uzviylikning uch komponentli yaxlit pedagogik tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagilarni qamrab oladi: shaxs shakllanishidagi uzviylik (ta'lism jarayonining rag'batlantiruvchi-motivatsion komponentiga mos keladi); ta'lism mazmunidagi uzviylik (ta'lism jarayonining mazmunli komponentiga mos keladi); ta'lism shakllari, metodlari hamda vositalari orasidagi uzviylik (ta'lism jarayonining jarayonli-faoliyatli komponentiga mos keladi) [16; 90-b.].

I.V.Artamonovaning fikriga ko'ra, uzviylik deganda, bilimlarni o'zlashtirish, tushunchalarni hosil qilish, ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida namoyon bo'luvchi muayyan tartib va ketma-ketlik tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lism uzviyligi yangi bilimlar vujudga kelishining zaruriy sharti sifatida o'quv-biluv faoliyati uzlusizligini nazarda tutadi [143].

Ko'p hollarda tadqiqotchilar uzviylik, uzlusizlik deganda, ta'lism bosqichlari uzlusizligini va ta'limda mavzular uzviyligini ta'minlashni tushunadilar hamda o'quv dasturlarining uzviyligi muammosi bilan shug'ullanadilar. Xuddi shu jarayon ta'limgni isloh etish davrida ham takrorlanadi. Kasbiy rivojlanish, uzviylik va uzlusizlikda ta'lism mazmunini tanlash ham muhim ahamiyat kasb etishini unutmaslik lozim. Ta'lism mazmunini tanlash bo'yicha juda ko'p manbalar mavjud. Masalan, V.N.Prosvirkin uzlusiz ta'limgni bog'lovchi elementlar va unga kiruvchi komponentlardan iborat bo'lgan faoliyat subyektlarini o'zaro harakatdagi uchta bir-biri bilan bog'langan bloklar tarkibida ko'rib chiqqan: 1) blok – mazmun va metodlar (unda uzviylikning mazmuniy va metodik jihatlari ko'rsatilgan); 2) kadrlar (pedagogik kadrlarning o'z-o'zini qayta

tayyorlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish, shuningdek, o‘quvchilarning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan kasbiy mahoratlarini oshirishga yo‘naltirilishi lozim); 3) muhit (ta’limiy rivojlanish muhitini yaratish) [29; 41-46-b.].

I.P.Podlsiy mazmunni shakllantirish tamoyillari sifatida insonparvarlik, ilmiylik, ketma-ketlik, tarixiylik, tizimlilik, hayot bilan bog‘liqlik, yosh xususiyatlariga moslik, tushunarli bo‘lish tamoyillarini ko‘rsatib o‘tadi [106; 320-321-b.].

Bu borada muammoga keng ko‘lamda va atroficha yondashilishi jihatidan professor Sh.Sharipovning izlanishlari alohida e’tiborga loyiq. Jumladan, olim o‘z tadqiqotlarida ta’lim-tarbiya jarayonidagi uzviylik hamda uzlucksizlik fan, ta’lim va ishlab chiqarishning o‘zaro uzviyligi; ta’lim mazmuni uzviyligi; bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdagi uzviylik; o‘quvchi shaxsini shakllantirishdagi uzviylik, ta’lim metodlari hamda shakllarini qo’llashdagi uzviylik o‘quvchilar o‘zlashtirishini baholashni tashkil qilishdagi uzviylikni ta’minlashini ta’kidlaydi [118; 98-b.].

Xuddi shuningdek, R.Q.Nimatov, Q.H.Abdullayevlar ham muammoning ilmiy-nazariy tahliliga doir ishlarida uzviylikning ko‘p qirrali ta’lim- tarbiya jarayonini tadqiq qilish va boshqarishni ta’minlashi hamda fanning maqsadini amalga oshirishga imkoniyat yaratishi xususida muhim xulosaga keladilar. Uzviylik, bog‘liqlik muammolarini yechish fanlararo, muayyan o‘quv fanining bog‘liqlik holati va imkoniyatlarini aniqlashga qaratiladi [28; 2-5-b.].

Bundan tashqari O‘.Tolipov va R.Choriyev kabi bir qator olimlarning fikricha, izchillik va uzviylik didaktikaning muhim tamoyillaridan biri bo‘lib, ta’lim mazmunini tashkil qiluvchi vositalar: dastur, metodik tavsiya, qo’shimcha ko‘rgazmali qurollarning o‘zaro mantiqiy bog‘lanishini, tayanch bilimlar asosida yangi ma'lumotlarning o‘zlashtirilishini, ta’limning muayyan bosqichlarida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdagi o‘zaro bog‘liqlikni talab etadi [31; 64-65-b.].

Bizning fikrimizcha, o'qituvchini uzlucksiz kasbiy rivojlanishiga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishda uzlucksizlik – shakl, uzviylik esa mazmun bo'lib xizmat qiladi. Uzlucksiz kasbiy rivojlanirish (keyingi o'rirlarda – UKR) doirasidagi amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar zamirida o'qituvchining psixologik, pedagogik, metodik, innovatsion tayyorligi, o'zgarishlarni qabul qilishi, ongiga singishini ta'minlovchi hodisa motivatsion kuch yotishi tabiiydir.

Uzlucksiz ta'lim ko'p qirrali tushuncha bo'lganligi sababli, uni nafaqat mohiyatan, balki davlat tomonidan boshqariladigan yagona tashkiliy tuzilma sifatida ham talqinlash mumkin. Shu nuqtayi nazarga ko'ra, aytish mumkinki, mamlakatimizda ta'lim tizimi yagona va uzlucksiz ravishda amalga oshiriladigan mактабгача ta'lim va tarbiya; umumiyo'rta va o'rta-maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta'lim kabi turlarning yaxlitligi hamda uzviyligini ifodalaydi [1].

Izlanishlarimiz natijasida "uzluksiz ta'lim" muammolarini tadqiq etishga oid adabiyotlarda ushbu tushunchaning bir-biridan farqlanuvchi bir nechta tavsifiy yo'naliishlari keltirilganining guvohi bo'ldik. Ular orasidan quyidagi uch turini alohida ta'kidlash mumkin (24):

1. Hayot davomidagi ta'lim (life-long learning, LLL).
2. Katta yoshlilar ta'limi (adult education).
3. Uzlucksiz malaka oshirish ta'limi (continuing vocational education and training).

Hayot davomidagi ta'lim (life-long learning, LLL) – ta'limning davomiyligini inson hayoti davomida amalga oshirilishini nazarda tutadi. Hayot davomidagi ta'lim esa, davlat tomonidan belgilangan (mактабгача, umumiyo'rta, o'rta maxsus, oliy, oliy ta'limdan keyingi ta'lim va malaka oshirish) ta'lim va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, takomillashtirish maqsadidagi mustaqil ta'lim kabi turli shakllarda bo'lishi mumkin.

Katta yoshlilar ta'limi (adult education) – yangi bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarga ega bo'lish maqsadida tizimli va doimiy mustaqil o'qib bilim orttirishdir [53; 7-b.]. Uzluksiz ta'lim jarayonlarining "katta yoshlilar ta'limi"da ishtirokchilarning kontengenti xususiyatlari hisobga olingan holda o'qitish va ta'lim sifatini baholash texnologiyalari ajralib turadi. Katta yoshlilar ta'limining eng asosiy jihat shundaki, ular amaliy ish tajribalariga, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan bu davrda ta'lim berish hamda kasbiy rivojlantirishning o'ziga xosligini, kattalarning bilim olish istagi va mustaqil yo'naltirilishini hisobga olish talab etiladi.

Uzluksiz malaka oshirish ta'limi termini ta'lim oluvchilarning professional vazifalari doirasidagi bilimlarini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi. Tadqiqot ishimiz misolida umumiyo'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish, o'z-o'zini namoyon qilish, mustaqil bilim olish, idroki, tafakkuri, kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, konsultativ va innovatsion faoliyatga turg'un motivatsiya shakllanishini nazarda tutuvchi qisqa muddatli, muammoli, mualliflik o'quv kurslarini taklif etish ularning bilim sifati samaradorligini yanada ortishiga xizmat qilmoqda.

1984-yilda YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan "Uzluksiz kasbiy rivojlantirish" konsepsiyasida UKR tushunchasining o'ziga xos izohini ifodalovchi quyidagicha ta'rif berilgan: "ta'lim tizimida yoki undan tashqarida hayotning turli davrlarida ro'y beradigan, bir-birini to'ldiradigan, bilim olishga, shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga, shu jumladan, o'rganish va kasbiy vazifalarni bajarish uchun tayyorlashga qaratilgan ongli harakatlar yig'indisidir" [84; 128-b.]. Bugungi kunga kelib, respublikamizda xalq ta'limi tizimidagi islohotlar natijasida umumiyo'rta ta'lim maktab o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish zarurati yanada ortdi. Jahondagi zamонавиј та'lim integratsiyalashуvi jarayonlarining kuchayishi bilan bir qatorda, O'zbekistonning innovatsion rivojlanish vazifalari pedagog xodimlar malakasini

oshirish tizimining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun alohida talablar qo'ymoqda.

UKR tarkibini aniqlashning hozirgi konseptual yondashuvlari asosan uchta muhim tamoyilga [40; 41; 48]: hayot davomidagi uzluksizlik (life-long continuing), o'qitish ko'lamidagi kenglik (breadth in teaching scope), o'rganishga yo'naltirilganlik(directed at studying)ka asoslanadi.

Bizningcha, umumiy o'rta ta'lif muktab o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish malaka oshirish shakllarini tubdan isloh qilish va olib borilayotgan o'zgartirishlarni tezroq amaliyotga kiritish, tajribada sinalganlik holatida xulosa chiqarishni talab qiladi, ya'ni:

- malaka oshirishning zamonaviy shakllarini joriy etish;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish muhitini yaratish;
- uzluksiz kasbiy rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tatbiq etish.

Shundan kelib chiqib o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishga motivatsion tayyorlik komptetentligini rivojlantirish bu - ularning hayoti davomida bilimi, ko'nikma va malakasini oshirish imkonini beruvchi o'quvchi va ta'lif o'rtasidagi munosabatlar mavjudligini nazarda tutadi.

Mazkur yo'nalishdagi vazifalar ijrosini samarali ta'minlash maqsadi hamda amalga oshirilajak ishlar mexanizmi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmonida [7] o'zining to'liq aksini topdi. Mazkur Farmonda belgilangan quyidagi asosiy yo'nalishlar xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish imkonini beradi hamda yetaklovchi funksiyani bajaradi:

mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini

tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;

dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o'qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish;

pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish;

ilmiy-tadqiqot va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar hamda masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;

ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta'lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish.

Shuningdek, respublikamizda “Kasbiy malakalar, bilim va ko’nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi”ning institusional tuzilma tarzida shakllantirishga doir harakatlarning boshlanishi ham ta’lim sifatini olshirish, mehnat bozorining talablari yoki istiqbollariga mos kasblarga o’qitish hamda malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat bo’lgan butun ta’lim jarayonini yangilash zaruriyatini dolzarblashtiradi. Shu maqsadda qabul qilingan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minalash chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4939-sonli Qarorini ta’lim sohasida navbatdagi burilish nuqtalaridan biri sifatida ta’kidlash mumkin. Qarorda belgilangan, “ta’limning eng past darajasiga qo’yiladigan talablarni bekor qilgan holda, har bir lavozim va kasb bo’yicha malaka doirasiga muvofiq malaka darajasiga talablar kiritilishi”, ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish majburiyati [9] o’qitish tizimini o’zgartirish, jumladan, o’qituvchilarning kasbiy malakalarini o’stirishga doir yondashuvlarni zamonaviylashtirish lozimligini ko’rsatadi.

Zamonaviy yondashuv hamda o’zgarishlarni o’zida jamlagan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab-quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4963-son Qarorida belgilangan vazifalar xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish borasidagi tom ma’nodagi yangiliklarga qaratilgan huquqiy-me’yoriy hujjat bo’ldi, desak o’rinli bo’ladi [10].

- 2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham “maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish” [8.] maqsadi alohida ta’kidlanib, bu borada xalq ta’limi xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirib borishga ustuvorlik qaratish, malaka oshirish turlarini kengaytirish, muqobil shakllarini

iste'molga kiritish hamda o'zaro aloqadorligini ta'minlash orqali kutilgan natijalarga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

- Yuqorida keltirilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar uzluksiz kasbiy rivojlanish, malaka oshirish ta'lim tizimiga jiddiy o'zgartirishlar kiritish uchun metodologik asos vazifasini o'taydi. Bu o'zgarishlar iqtisodiyot va jamiyat ravnaqining mavjud talablariga javob beruvchi o'qitish madaniyatini vujudga keltirish, ta'lim nazariyasi va amaliyotini integratsiyalash, tizimning barcha ishtirokchilari hamda ish beruvchilarning muvaffaqiyatli o'zaro ta'sirini qaror toptirishni ilgari suradi. Kutiladigan natija esa, raqobatbardosh, ijodiy tafakkurga ega, murakkab vaziyatlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan, motivatsion tayyorlik kompetentliliği rivojlangan, mustaqil, o'zgarishlarga chidamli, moslashuvchan, butun umri davomida o'qishga o'zini motivlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lgan shaxslardir. Shubhaga o'rin yo'qki, bu maqsad va natijalarga faqatgina sifatli ta'lim hamda yuksak mahoratli o'qituvchilar bilangina erishish mumkin.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan olib borilgan izlanishlar fan - texnika hamda ijtimoiy munosabatlarning shiddatli rivojlanishi, ta'lim mazmuniga qo'yilayotgan yangicha talablar ijrosi o'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlanishida motivatsion tayyorlik kompetentliligini rivojlantirishning uzluksizlik va uzviylik muammosini hal etish bilan chambarchas bog'liqdir, degan xulosaga olib keldi. Izlanishlar o'qituvchining UKRga motivatsion tayyor bo'lishi uzluksiz ta'limning takomillashgan shakl, metod, usul hamda vositalarini yaratish uchun poydevor vazifasini o'tashidan dalolat beradi.

1.3-§. Kasbiy kompetentlik – o'qituvchining uzlusiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik omili sifatida

Yangi O'zbekistonning mustahkam poydevori ta'lif tashkilotlarida yaratilishini Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonning ostonasi mактабдан boshlanishi"ga urg'u berish orqali ta'kidladi. Shunga muvofiq bugungi kunga kelib, ta'lif maqsadlari tadrijiy rivojlanib, taraqqiyot tomon bormoqda. Bunday rivojlanishning jadal borishida esa o'qituvchi bosh omil hisoblanadi.

O'qituvchilarning shaxsiy-kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'nalishlarida tashkil etiladigan innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish, mazkur jarayonga ularning qiziqishlarini oshirish hamda ko'zlangan natijalarga erishishda dialektiklik, davriylik, asoslanganlik darajasi, ixtiloflilik, ahamiyatlilik, tavakkalchilik, rahbarlik uslublarini tavsiflash qobiliyati, vaziyatga aloqadorlik, tarkibiy tuzilishga egaligi, innovatsion harakatlar strategiyasini shakllantirish imkoniyati, liderlik, ijtimoiy mo'ljallanganlik, ta'limi metodik jihatdan tabaqalashtirish qobiliyati, innovatsiyalarni subyekt tomonidan qabul qilishlik, moslashuvchanlik, mas'uliyat, uzlusiz va mustaqil bilim olishini ifodalovchi motivatsion tayyorlik kompetentligiga ega bo'lish majburiyatini belgilaydi.

Bu o'z navbatida pedagog xodimning yangicha yondashuvlar, o'zgarishlar, tamoyillar, chaqiriqlarga samarali munosabat bildirishi hamda mustaqil holda ongli va ijodiy o'zgartirishlar krita olish kompetentliligin ham zaruriy ko'nikma tariqasida belgilash ehtiyojini vujudga keltiradi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qituvchilar uchun "ta'lif berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirishni, pedagogik-psixologiyani tushunishni, ta'lif berishga kompetentlilik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni egallash" va "xalq ta'lifini boshqarishda strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllarini yaratish, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, sohada xalqaro tajribadan kelib chiqib, ilg'or

yutuqlardan foydalanish amaliyotini kengaytirish” [5] dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanishi bejiz emas.

O‘z-o‘zini rivojlantirishga kompetentlilik o‘qituvchining o‘z kasbiga nisbatan munosabatini ifodalaydi va unga faoliyatining konseptual loyihasi timsolida qaralishi pedagog xodimning doimo turli murakkablikdagi kasbiy vazifalar hamda pedagogik vaziyatlarning maqbul yechimini topishga layoqatli, yangiliklar uchun ochiq, tashabbuskor, intiluvchan bo‘lishini talab qiladi. Demak, ayni shu jarayon o‘qituvchidan o‘z faoliyatiga munosabatini o‘zgartirishni, zaruriyat tug‘ilganda, qayta qurishni talab etadi. Bu esa tizimning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

Tadqiqot muammosi yuzasidan olib borilgan izlanishlar, sohaga daxldor adabiyotlar tahlili xalq ta’limi tizimida uzlusiz kasbiy rivojlanish bilan o‘qituvchining amaliy faoliyati hamda o‘z-o‘zini rivojlantirishga motivatsion tayyorlik kompetentligi o‘rtasida quyidagicha ziddiyatlar mavjudligini ko‘rsatdi:

- uzlusiz kasbiy rivojlanish jarayonida o‘qituvchilarining motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish muammosiga pedagogik-psixologik jihatdan tegishli darajada e’tibor qaratilmagan;

- jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq maktab ta’limida o‘qituvchilarining yangiliklarga intiluvchanlik, o‘zgarishlarga qayishuvchanlik, ayni ta’limiy jarayon va bugungi kun o‘quvchisiga moslashuvchanligi, ilmiy-metodik salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik talablarning ortishi taqozosi yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqilmagan;

- o‘qituvchining uzlusiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari aniqlanmagan;

- o‘tkazilgan davra suhbatlari va tajriba-sinov ishlariga ko‘ra, o‘qituvchilar uzlusiz kasbiy rivojlanishga oid malaka oshirishning turli shakllari, jumladan, tashkil etiluvchi qisqa muddatli kurslar yuzasidan yetarli ma’lumotga ega emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, UKRga kompetentli yondashuvni amalga oshirish, o'qituvchining o'z kasbi doirasidagi talablarga muvofiq kompetentlik darajasini ko'tarish, jumladan, ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganish talab etiladi. Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish biroz murakkab, chunki kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning natijasi sifatida boshqa fanlardan kiritilgan bo'lib, ularda yetarli darajada talqin etilgan, o'rganilgan va o'zining mustahkam o'rniga ega. Pedagogik tushunchalar tarkibiga esa nisbatan keyingi yillarda kirib kelgan bo'lib, didaktik, metodik, xususan, ta'linda o'qitish tizimiga to'laqonli singdirilmagan va bu holat pedagogik tadqiqotlar davomida ularning ko'plab ta'riflari hamda talqinlari paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Demak, tadqiqotimiz davomida kompetentli yondashuv, kompetentlilik tushunchalariga to'xtalib o'tish motivatsion tayyorlik kompetentligining mohiyatini yoritishda ma'lum ma'noda xizmat qiladi. O'qituvchining uzlucksiz kasbiy rivojlanishiga kompetentli yondashuv kasbiy malaka talablarida ko'zda tutilgan shaxsiy samaradorlik, ta'lim mazmunini boyitish, ilmiy-metodik salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Bunda motivatsion tayyorlik, o'qituvchilarining qiziqishlarini orttirish, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarini yangi vaziyatlarda qo'llash, kuzatishlar yuzasidan xulosalar chiqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga turki beradigan, kasbiy ehtiyojlarni qondiradigan o'quv dasturlarini taklif qilish malaka oshirishning ustuvor vazifalaridan sanaladi.

Kompetentli yondashuvga asoslangan ta'lim – o'qituvchilarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amalda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan bиргаликда, ularda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik,

mediaresurslar va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb tanlash va unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish kabi sog‘lom raqobat ko‘nikmalarini shakllantiradi, nafaqat o‘quvchilarga ta’lim berishda, balki o‘z-o‘zini o‘qitib borishda ham uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga amal qilishni ta’minlaydi.

Kompetensiya umumiyligi tuzilishining unsurlaridan biri sifatida ayrim mualliflar “tabiiy kompetensiya”ni belgilaydilar. Bu insonga tabiat tomonidan berilgan, aytish joiz bo‘lsa, qobiliyat ekanligini ochib beradi. Pedagogikadagi eng muhim kompetentlik – “orttirish, egallash, o‘zlashtirish kompetentligi” bilim va mahorat bo‘lib, o‘quv jarayonida hamda kundalik pedagogik faoliyat natijasida yuzaga chiqadi [27]. Ta’kidlash joizki, aynan tabiiy kompetensiyalar negizida yoki u bilan chambarchas bog‘liq holatda insonda ichki, doimiy motivatsiya ham mavjud bo‘ladi.

Kompetentlik o‘z ichiga kompetensiyalar tizimini qamrab olib, shaxsning amaliy vaziyatlarda faol ishtirok etishi va ularning ratsional yechimini izlab topishda o‘zini o‘zi takomillashtirish qobiliyatları bilan uzviy bog‘liq. O‘rganishlarimiz xulosasiga ko‘ra, kompetentlik ma’lum holat xususida to‘g‘ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo‘lish, dalil, isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etish darajasidir. Kompetentlik insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma’lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish yoki mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkonini beradi. A.Zimnyaya esa kompetentlikning asosiy uchta guruhini ajratib ko‘rsatadi:

1. O‘quv bilish kompetensiyasi. Muayyan ijtimoiy muhit bilan bog‘liq hayotiy faoliyatning subyekti hisoblanuvchi shaxsning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan kompetentlik.

2. Axborot kompetensiyasi. Inson faoliyatining barcha turlari va shakllarida namoyon bo‘ladigan kompetentlik bo‘lib, uning topqirligi dunyoqarashining kengligi bilan bog‘liq ravishda tegishli

ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, abstraksiyalash va zamonaviy vositalardan oqilona foydalana olish jarayonida namoyon bo'ladi.

3. Kommunikativ va tadqiqotchilik kompetensiyasi. Insonning ijtimoiy munosabatlarda faolligi, o'zini ko'rsata olishi, muammoning turli xildagi yechimlarini topa bilishi, eng ratsional yo'llarni keltirishi va boshqalar bilan o'zaro aloqalariga taalluqli bo'lgan kompetentlik [21; 47-b.].

O'quvchi kompetensiyalarini shakllantirishda o'qituvchidagi kasbiy-pedagogik kompetentlik muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu borada xilma-xil qarashlar mavjud. Masalan, V.D.Shadrikov o'qituvchining bazaviy kompetentligini bir necha qismga ajratib ko'rsatgan bo'lsa [34; 11-b.], L.M.Mitina pedagogik kompetentlikka bilim, ko'nikma, malakalar ularni ro'yobga chiqarish usullari, muloqot, o'z-o'zini rivojlantirishga bog'liqligini belgilab bergan [37; 16-b.]. N.V.Kuzmina esa professional-pedagogik kompetentlikni psixologik jihatdan talqin qilib, uning tarkibini maxsus va professional, metodik, ijtimoiy-psixologik, differensial-psixologik kompetentliklar tizimi bilan izohlaydi [25]. Ushbu terminni soddaroq ifodalamoqchi bo'lsak, kasbiy faoliyati davomida o'qish, o'rganish, o'qitish, o'rgatish, ma'lumotlar bazasini sintezlash orqali shaxs sifatida o'z-o'ziga singdirish, o'zini o'zgartirish hamda to'plangan bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarni analiz qilish orqali amaliy hayotda qo'llash yoki boshqalarga ularish jarayoni, deya ta'riflaymiz. Chunki faqat o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarни amalda o'zgalar bilan bo'lishish mumkin.

Pedagogik faoliyat samaradorligi darajasini aniqlashda esa "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari yordamida baho berishdek amaliyot yanada ommalashib ketdi.

Olimlarning fikriga ko'ra, "kompetensiya" shaxs mukammal biladigan predmet – soha bo'lib, uning faoliyat ko'rsatishi uchun tayyor ekanligi o'lchovi hisoblanadi. "Kompetentlik" tushunchasini esa undan farqli o'laroq, shaxsning yo'nalitirilgan tasnifi,

bitiruvchining ma'lum sohada faoliyat ko'rsata olish ko'nikmasi ekanligini ta'kidlaydilar.

O.Qo'ysinov kompetentlikni bu faqatgina o'zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi va salmoqli hajmi bo'libgina qolmay, balki ulardan kerak vaqtida hamda o'zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida foydalana olish demakdir, deya ta'riflaydi. Tadqiqotchi kompetentlikning murakkab, integral xarakterini tavsiflar ekan, xorijdagi boshqaruv modellarida uning uch darajasi yoki turi ajratib ko'rsatilganligini ta'kidlaydi [129; 36-b.]:

1) integrativ kompetentlik – bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga va tashqi muhitning tez o'zgarib turadigan sharoitlarida ulardan foydalana olishga qodirlik;

2) ijtimoiy-psixologik kompetentlik – zehn-idrok, odamlarning xulq-atvorini tushunish bo'yicha bilimlar va ko'nikmalar, ularning faoliyati motivatsiyasi, kirishuvchanlik va muloqot madaniyatining yuqori darajadaligi;

3) boshqaruv faoliyatining muayyan sohalari bo'yicha kompetentlik – qarorlar qabul qilish, axborot yig'ish, odamlar bilan ishslash metodlari va hokazolar.

Sh.Sharipovning fikricha, kompetentlik – shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarini uning ijtimoiy professional mavqeyi va o'ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga yetarliligi hamda haqiqiy moslik darajasi. Kompetentlik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishslash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi [35].

I.A.Zimnyaya o'z tadqiqotlarida kompetentlikning quyidagi 3 ta guruhini ajratib ko'rsatadi:

- shaxsning subyektiv faoliyatiga taalluqli bo'lgan kompetentlik;

- shaxsning jamiyat bilan ijtimoiy o'zaro ta'siri doirasidagi kompetentlik;

- inson faoliyati turlariga tegishli kompetentlik [22; 7-14-b.].

Psixologik nuqtayi nazardan ayrim qarashlar umumlashmasida, kompetentlik – atrofdagi olamni tushunish mezoni va u bilan o'zaro ta'sirining mutanosibligi sifatida, faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida yoki insonning atrof-muhitga va o'z-o'ziga ta'sir etish metodlarini egallaganligi ta'rifi yuzaga kelsa, A.K.Makovaning fikricha, kompetentlik – insonning muayyan tavsifi, ya'ni kasbiy talablarga munosibligi darajasi bo'yicha faqat o'zigagina xos bo'lgan (individual) xarakteristikasi sanaladi. Shuningdek, u muayyan insonning kompetentliligi uning kasbiy mahoratiga nisbatan torroq bo'ladi, deb hisoblaydi: "Umuman olganda, inson o'z kasbining ustasi bo'lishi mumkin, lekin barcha kasbiy masalalarni hal etishda kompetentli bo'lmasligi mumkin" [96; 19-20-b.].

Boshqa bir holatda kompetentlikni xushaxloqlik, pedagogik tashkilotchilik, boshqaruvchilik, kommunikativlik singari kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlar bilan bir qatorga qo'yadilar. Kompetentlikning o'zi pedagogda umumiy dunyoqarashning kengligi va madaniyatning yuqoriligi, pedagogika, psixologiya, boshqaruv nazariyasi va ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari bo'yicha kasbiy bilimlarining mavjudligi, o'z bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga qodirlik, ijtimoiy va psixologik-pedagogik tadqiqotlar metodlarini bilish, pedagogik va boshqaruv ko'nikmalarining zaruriy majmuasiga ega bo'lishni nazarda tutadigan kasbiy bilim va ko'nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo'llash va takomillashtirishga qodirlik bilan belgilanadi [90].

E.F.Zeyerning fikricha, kasbiy kompetentlilik – kasbiy bilimlar, ko'nikmalar yig'indisi, shuningdek, kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari bo'lib, ular quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

ijtimoiy-huquqiy kompetentlik, ya’ni ijtimoiy institutlar va odamlarning o’zaro faoliyatlari sohasidagi bilim va ko’nikmalar, shuningdek, kasbiy muloqot yo’llarini va xulq-atvor qoidalarini puxta egallaganlik;

maxsus kompetentlik, bu mustaqil ravishda muayyan faoliyat turlarini amalga oshirishga tayyorlik (bizningcha, motivatsion tayyorlik), ko’p uchraydigan kasbiy masalalarni hal eta bilish va o’z mehnati natijalarini tahlil qilish, baholay olish, mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda o'zlashtira olishga qodirlik;

shaxsiy kompetentlik – kasbiy mahorati va malakalarini doimiy ravishda orttirib borishga qodirlik, kasbiy faoliyatida o’zini ko’rsata olish;

autokompetentlik – o’zining ijtimoiy-kasbiy imkoniyatlari bo'yicha haqqoniy tasavvurga ega bo'lish, anglash, tan olish, kasbiy qiyinchiliklarni bartaraf eta olish [20].

Olimning fikricha, mutaxassisning kasbiy kompetentligini quyidagi professional xususiyatlarda ko'rishimiz mumkin:

- shaxsning kasbiy jihatdan maqsadga yo'naltirilganligi: muvaffaqiyatlar va yutuqlarga intilish, jamoa bilan birqalikdagi faoliyatni amalga oshirish va jamoa manfaatlari uchun jon kuydirish, ishonchilik, o’z kasbiga munosiblik va b.;

- kasbiy jihatdan muhim sifatlar: vijdonlilik, o’z ruhiy holatini tahlil qila bilish, mustaqillik, mas’uliyatlilik, aqliy jihatdan yetuklik, baholash va bashorat qila olishga layoqatilik, kommunikativlik, kasbiy safarbarlik, muammolarni hal eta bilish va b.;

- kasbiy jihatdan muhim bo’lgan psixofiziologik sifatlar: ishslash qobiliyati, qo'l ishlarini mohirona bajara olish, psixomotor ko'nikmalar, ko'z bilan chamalash mahorati va b.

Shuningdek, A.S. Markovaning aytishicha, “Kasbiy kompetentlik – “pedagogik faoliyatni oliy darajada amalga oshira oladigan o’qituvchining mehnatini, pedagogik muloqotini va o’qituvchi shaxsining salohiyatini belgilaydiki, uning yordamida ta’lim

oluvchilarning ta'lif-tarbiyasi sohasida yaxshi natijalarga erishiladi” [96; 15-16-b.]. Uning fikriga ko'ra, “kasbiy kompetentlik” tushunchasi o'qituvchi mehnat faoliyatining umumlashmasi sanaladi: pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, pedagogning shaxsi (protsessual ko'rsatkichlar) ta'lif darajasi – ta'lif olganlik; tarbiyasi – tarbiya darajasi (natija ko'rsatkichlari). Bularning har biri o'z tarkibiga quyidagi muhim jihatlarni biriktiradi:

- pedagogik bilimlar – psixologik ma'lumotlar, o'qituvchi mehnatining mohiyati haqida pedagogik tushuncha, uning pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi, muomalasi, shaxsi, ta'lif oluvchilarning psixologik rivojlanish darajasi va yoshi;
- mahorat – harakat, keraklicha yuqori darajada bajariladigan faoliyat;
- kasbiy psixologik pozitsiya – o'qituvchining ta'lif oluvchiga, hamkasblariga, o'ziga bo'lgan munosabatini aniqlovchi xulq-atvori, salohiyati, kasbiy takomillashuv darajasi, o'z mehnatining mohiyatini tushunishi;
- psixologik jihatdan o'ziga xosligi (ma'naviy fazilatlari) – bilimga chanqoqligi, pedagogik fikrlashi, salohiyati, kuzatuvchanligi, maqsadga intilishi, qiziqishi va boshqalar.

Pedagog olimlarning ishlarida kompetentlikning pedagogik nuqtayi nazardan yanada kengroq va sinchiklab o'rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan hamda o'rganib chiqilgan.

S.Y.Shishov tomonidan kompetentlikning quyidagi ta'riflari keltirilgan:

o'qish-o'rganish tufayli egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiylayotlilik;

bilim hamda vaziyatlar o'rtasidagi aloqani o'rnata bilish qobiliyati, ularni hal etishning muammoga mos keladigan yo'lini topish [36].

L.M.Dolgovaning fikricha, kompetentlik – egallangan bilimlar asosida faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishdir. Kompetentlik

universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadigan ijtimoiy-amaliy ko'rnishdagi bilim va ko'nikmalardan iborat mavjudlik bo'lib, ta'lif jarayoni natijalariga jamiyat tomonidan ijtimoiy-madaniy talablar qo'yilganda namoyon bo'ladi [18; 191-193-b.].

M.P.Choshanov fikricha, kompetentlik kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo'lib, uning o'ziga xos tomonlari quyidagilardan iborat:

kompetentli mutaxassisning bilimlarni egallashdagi harakatlari amaliy tezkor va harakatchan, ular doimo yangilanib turadi;

kompetentlik mazmuniy (bilimlar) va protsessual (ko'nikmalar) komponentlarga ega. Muammo mazmunini tushunishning o'zigma yetarli emas, uni amaliy jihatdan maqbul usullar bilan hal eta bilish kerak, ya'ni metodlarning moslashuvchanligi kompetentlikning zaruriy tasnifi hisoblanadi; kompetentlik darajalarini rivojlantirishning maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto'g'ri qaror qabul qilish yo'llaridan voz kechish, ya'ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi [33].

Demak, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma'lum bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin bo'lgan faoliyatga doir kategoriya bo'lib, subyektning qo'yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyatida yuzaga chiqadi. Umuman, kompetentlik – individning jamiyatda, xususan, kasb sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi, atrofdagi obyektlar va subyektlar bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha muayyan malakalar hamda kasbiy tajribalar shakllanganligining muayyan darajasidir. Kompetentlikning shakllanganligi borasida inson mehnatinining natijasiga qarab baho beriladi. Har bir xizmatchining kompetentliligi darjasini uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy

natijasiga qo'yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi.

Yuqoridagi fikrlardan va psixologik-pedagogik adabiyotlarning tahlilidan kelib chiqib, kasbiy kompetentlik funksiyalari quyidagilardan iborat, degan xulosalarga kelish mumkin:

- ✓ amaliy funksiyasi – o'zining kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini mutaxassis amaliy faoliyatida qo'llashi;
- ✓ moslashish funksiyasi – mutaxassisning ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarga, o'z kasb-kori talablariga ko'ra moslashishi;
- ✓ integrativ funksiyasi – mutaxassisning jamoada uni yaxshi tushunishlari imkonini beruvchi xususiyati;
- ✓ yo'naltirilganlik funksiyasi – mutaxassis uchun o'z kasbiy faoliyatini muayyan yo'nalishga solishi;
- ✓ baholay olish (ekspertlik) funksiyasi – mutaxassis o'z bilimlari, mahorati va malakasi yordamida hamkasblarining ishiga hamda o'z faoliyatiga baho berishi, tahlil qila olishi;
- ✓ kasbiy rivojlanish funksiyasi – mutaxassis kompetensiyasi, uning malakasi oshib borishi, mahoratining ortishi asosini belgilashi.

Shu bilan birga, kompetentlikni bilimlarga yoki ko'nikma va malakalarga qarama-qarshi qo'yish ham mumkin emas. Kompetentlik tushunchasi bilim, ko'nikma yoki malaka tushunchalariga nisbatan kengroq, ya'ni ularni ta'lim natijasi sifatida o'z ichiga oladi (lekin bunda kompetentlik bilim, ko'nikma va malakalarning oddiy yig'indisi emas, birmuncha boshqacharoq mazmundagi tushunchadir). Kompetentlik tushunchasi nafaqat kognitiv va operatsion-texnologik, balki motivatsion, axloqiy, ijtimoiy, tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga oladi.

Shuning uchun kompetentli yondashuv natijasida quyidagilar ta'minlanishi lozim:

- o'z-o'zini rivojlantirish manbai sifatida ta'lim olishga ichki motivatsiyaning mavjud bo'lishi, jumladan, motivatsion tayyorlik kompetentligi;

- yaxlit faoliyatni egallash sharti sifatida o'quv faoliyati jarayonida o'z-o'zini safarbar etish kompetentligi;
- har bir shaxsga o'zining u yoki bu o'quv materialini o'zlashtira olish darajasini aniqlash imkonini beruvchi o'z-o'zini differensiatsiyalash (o'z darajasini aniqlay bilish) kompetentligi;
- ta'lim oluvchi tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga erishish kompetentligi;
- ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatining o'zaro bog'liqligi.

Shu bilan birga, kompetentlikka yo'naltirilgan ta'limning metod va texnologiyalari ma'lum bir sharoitlarda shakllantirilgan qobiliyatlarning boshqa bir sharoitlarga oson ko'chishi va moslashuvchanligini ta'minlashi kerak, ya'ni "noadaptiv faollik" xususiyatini hosil qilishi lozim.

Kompetentli yondashuv ta'lim sifatini baholash uchun ham juda muhim hisoblanadi, chunki, ta'lim oluvchi tomonidan erishiladigan asosiy ta'limiy natija – kompetentlik hisoblanadi, uning asosiy ko'rsatkichlari esa, bir tomondan ta'lim standartlarining me'yoriy talablariga muvofiqligi, ikkinchi tomondan, shaxsning va turli ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlariga mosligidir. Shunday qilib, kompetentlikning

- birinchi tarkibiy qismi me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan ta'lim natijalarini;
- ikkinchi tarkibiy qismini esa ijtimoiy talablar va ehtiyojlar belgilaydi, bu qism jamiyatning rivojlanishiga mutanosib ravishda universal, o'zgaruvchan bo'lib, o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritilib turiladi.

A.A. Cheremisina kompetentlikni shaxsning yaxlit sifati, deb qaraydi va kognitiv (bilim), motivatsion (moyillik) va faoliyat(tajriba)dan iborat, deb hisoblaydi [32; 82-85-b.].

I.V. Grishinaning fikricha, kompetentlik shaxsning murakkab va ko'pqirrali layoqati bo'lib, funksional jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi komponentlardan iborat:

- a) motivatsion (maqsad hamda vazifalarga mos keladigan motivlar majmui);
- b) kognitiv (zarur bo'lgan bilimlar majmui);
- v) operatsion (vazifalarni amaliy hal etish ko'nikmalari va malakalari majmui);
- g) shaxsiy (muhim shaxsiy sifatlar majmui);
- d) refleksiv (o'z faoliyatidan ko'ngli to'lish, uni baholash, "susaytirish", yo'l tutish usullarini tanlash) [79].

Izlanishlarimiz va ilmiy tahlillardan kelib chiqib, o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorlik kompetentligining mazmuni va tuzilmasini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

- kognitiv (fan sohasiga oid bilimlar majmui bo'lib, ular asosida kompetentlik shakllantiriladi) tayyorlik;
- faoliyatga oid (amaliy tajriba) kasbiy tayyorlik;
- operatsion texnologik (vazifalarni amaliy hal etish ko'nikmalari va malakalari majmui) tayyorlik;
- shaxsiy (mazkur fan sohasidagi faoliyat uchun muhim bo'lgan individual-psixologik sifatlar va qobiliyatlar majmui) tayyorlik;
- motivatsion (o'z-o'zini rivojlantirish, faoliyatning maqsad hamda vazifalariga mos keladigan qadriyatlarga moyillik, motivlar majmui, dunyoqarash) tayyorlik;
- refleksiv (faoliyat va uning natijalari mohiyatini tushunish, baholash, oldindan ko'ra bilish, kreativlik) tayyorlik.

Kompetentlikning mohiyatini va shakllantirilishini o'rganish muammolariga bag'ishlangan manbalarni tahlil qilish uning eng muhim belgilarini, shuningdek, komponentlari tuzilmasini aniqlash imkonini beradi.



1.1-rasm. Kompetentlik tuzilmasining tayyorlik darajalari

Bu elementlarni ularning tartibli o‘zaro bog‘liqligida ko‘rilsa, mazmuni va fanga oid tavsifidan qat’i nazar, kompetentlik tuzilmasining uchta tayyorlik darajasini belgilash mumkin: kognitiv, shaxsiy va faoliyatga oid komponentlarni o‘z ichiga oladigan bazaviy-fundamental tayyorlik darjası, motivatsion va refleksiv-kreativlik komponentlarini o‘z ichiga oladigan instrumental daraja va shaxsning xislatlari sifatidagi kompetentlikning mohiyatini aks ettiradigan amaliy ko‘nikma va malakalarini o‘z ichiga oladigan operatsion-texnologik daraja.

Kompetentlilik esa ta’limning maqsadi va natijasi sifatidagi kompetentlik, fanga oid bilimlar, individual-psixologik sifatlar hamda amaliy tajriba asosida shakllantirilgan va insonning amaliy faoliyatga va hayotiy muammolarni hal etishga qodirligi va tayyorligida ko‘rinadigan yaxlit sifatini bildiradi.

Shuningdek, “kasbiy kompetentlik” tushunchasi pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, pedagogning shaxsi (protsessual ko‘rsatkichlar) ta’lim darjası – ta’lim olganlik; tarbiyasi – tarbiya darjası (natija ko‘rsatkichlari) kabi o‘qituvchi mehnat faoliyatining umumlashmasi sanaladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kompetentlik o‘z ichiga kompetensiyalar tizimini qamrab olib, shaxsning amaliy vaziyatlarda faol ishtirok etishi va ularning ratsional yechimini izlab

topishda o‘zini o‘zi takomillashtirish qobiliyatlari bilan uzviy bog‘liq. O‘rganishlarimizga ko‘ra, kompetentlik ma’lum holat xususida to‘g‘ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo‘lish, amaldagi dalil, isbotli fikr, kishining saviyasini ifoda etishi; individning jamiyatda, xususan, kasb sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi, atrofdagi obyektlar va subyektlar bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha malakalar hamda kasbiy tajribalar shakllanganligining muayyan darajasi hisoblanadi.

I bob bo‘yicha xulosalar

Mazkur bobda motivatsiya va uning ilmiy-nazariy o‘rganilish sohasi, uzluksizlik, uzviylik va o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish metodologiyasining mohiyati, kompetent yondashuv orqali UKRga motivatsion tayyorlik yuzasidan keltirilgan fikr-mulohazalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Motivatsiya hamda motivatsion tayyorlik aspektining konseptual asoslarini o‘rganish, tahlil qilish, aniqlash hamda bugungi o‘zgaruvchan ta’lim muhitida o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorligini ta’minlash asosiy maqsad sanaladi.

Motivning psixologik mohiyati shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulq-atvori, o‘zini qanday tutishi, xatti-harakatning amalga oshishi bilan bog‘lab talqinlanadi va bunda ehtiyojli yondashuv motiv hamda motivatsiya borasidagi nazariyalarni boyitish, ma’nosini kengaytirish sababchisi bo‘la olgan.

Global kompetentlik talab qilinayotgan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash zarurati kuchaygan bir davrda o‘zgarishlarga to‘g‘ri yondasha olishi uchun o‘qituvchi faoliyatida va uning uzluksiz kasbiy rivojlanishida motivatsiya tizimini ta’lim oluvchilarning manfaatlariga moslab ishlab chiqish hamda pedagog xodimning o‘z-o‘zini rivojlantirishga motivatsion tayyorlik kompetentligini takomillashtirib borish lozim.

O'rganishlarimiz hosilasida, o'qituvchini uzlucksiz kasbiy rivojlanishiga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishda uzlucksizlik – shakl, uzviylik esa mazmun bo'lib xizmat qilishi, uzlucksiz kasbiy rivojlanish doirasidagi amalgamoshirilishi zarur bo'lgan vazifalar zamirida o'qituvchining psixologik, pedagogik, metodik, innovatsion tayyorligi, o'zgarishlarni qabul qilishi, ongiga singishini ta'minlovchi hodisa motivatsion kuch yotishi aniqlandi.

Shu narsa ma'lumki, har bir o'qituvchining kompetentliliği darajasi uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo'yiladigan talablarga qaydarajada javob berishiga qarab belgilanadi, chunki, aynan shu sifatlar o'qituvchi harakatlarini tutashtiruvchi halqa vazifasini o'taydi va motivatsiyani kuchaytirish orqali yangi bilimlarni egallashi, qiziqishlari darajasi, qobiliyati, muvaffaqiyatlari, faoliyatini yuksak saviyada olib borishga intilishi, o'ziga bo'lgan ishonchi hamda imkoniyatlarini anglashga zamin yaratadi.

II BOB. O'QITUVCHILARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA MOTIVATSION TAYYORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1-§. O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish modeli

Ta'lif yoki ta'lif jarayonining modelini yaratish nisbatan qiyin, chunki bu vaziyatda obyektning xatti-harakati asosida uning oqibatini bashorat qilish lozim bo'ladi. Obyekt faoliyatini amaliyotga joriy etilgan model asosida tartiblashtirib borish har doim ham muvaffaqiyatli hal etilavermaydi. Natijada, aynan predmetga tegishli modellarni ishlab chiqishdagi kattagina qiyinchiliklar tufayli ta'lif jarayonini modellashtirish sekin rivojlanayotgan soha hisoblanadi. Ammo bu pedagogik jarayonlarni modellashtirib bo'lmaydi, degani emas.

Bugungi kunda pedagogikaga doir aksariyat ilmiy izlanishlarda uning mazmuni, shuningdek, ayrim o'ziga xos fazilatlarini aniqlashtirish, shakllantirish maqsadida modellarning turli sxemalari hamda turlarini zaruriy element sifatida kiritish faollashgan va mammuniyat bilan qabul qilinadigan tendensiyaga aylangan. Buni yorqin misollar yordamida ko'rish mumkin, biroq taklif etilayotgan shakllarning ayrimlari modelga o'xshamaganligini ko'pgina tadqiqotlar tahlili isbotlaydi. Pedagogik modellashtirish qanchalik murakkab bo'lmasin, unda ilgari surilgan g'oyaning mavjudligi, maqsadning konkretligi, ifodalanayotgan jarayon bosqichlarining ketma-ketligi, izchilligi, uzviyligi, harakatlarning algoritmlashtirilganligi, o'z-o'zini boshqarish, shaxsiy samaradorlikka ishonch, kutilmalarning aniqligi modelni amalga oshirishdagi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Izohlayotganimiz ushbu tushunchaning mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak,

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da model hamda modellashtirmoq tushunchalariga quyidagicha ta’rif berilgan:

Model (fr. modele < lot. modulus – o‘lchov me’yor) – biror narsaning xuddi o‘zidek yoki kichraytirib, kattalashtirib olingan, ko‘plab ishlab chiqarish uchun andoza bo‘ladigan nusxasi.

Modellashtirmoq – biror narsaning modelini ishlamoq, yaratmoq; hodisalar jarayonining yuz berish modelini belgilamoq, shu yo‘l bilan tadqiq etmoq [124; 606-b.].

Pedagogik jihatdan model – ta’lim-tarbiya jarayonlarining barcha shakllaridagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlovchi, belgilangan maqsad hamda vazifalarning yo‘nalishini ifodalovchi va ko‘zlangan natijalarga erishishni ta’minlovchi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi komponentlardan iborat tizimlashgan shakl.

Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan talablar asosida ishlab chiqilgan samarali hisoblangan tushunchalardan foydalanishni ifodalovchi, mazkur jarayonni tashkil etish bosqichlari va fnuksiyalari aks ettirilgan ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan andaza.

Modellashtirish – o‘quv materiallari yoki ta’lim mazmunini yaxlit tizimga keltirish [103; 342-b.].

- Ma’lumki, modellashtirish pedagogik izlanishlar jarayonida muvaffaqiyatli va universal bilish amaliyoti sifatida qo‘llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri hisoblanadi. Modellashtirish tadqiqot jarayonida empirik, nazariy va amaliy ma’lumotlarni yaxlitlash, ilmiy abstraktlash, mantiqiy zanjirni paydo qilish hamda tajriba-sinov ishlarida uyg‘unlashtirish uchun sharoit yaratadi. Shu ma’noda, uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini kompetent yondashuv asosida modellashtirishda loyihalashtirilayotgan model “...obyekt tarkibiga kiruvchi komponentlar, ularning o‘zaro aloqadorligi, shuningdek, ishlash va rivojlanish xususiyatlarini aniq belgilash maqsadidagi tadqiqot predmetining ko‘rgazmali-mantiqiy namoyishi” [122; 139-b.] sifatida qaraladi hamda jarayonning mazmun-mohiyati tushuntiriladi. Modellashtirishning maqsadi

“...tashqi muhit va o‘zaro aloqada bo‘lgan obyektlar haqidagi ma’lumotlarni olish, ishlatish, tasvirlash va qayta ishlashdir” [74; 14-b.].

Modellashtirish deganda, biz haqiqiy obyektni boshqa obyekt bilan tasvirlash jarayonini tushunamiz, ya’ni model yordamida asl nusxaning eng muhim xususiyatlarini o‘rganish yoki aniqlash mumkin bo‘ladi [47]. Bordovskayaning ta’rifiga ko‘ra, “Modellashtirish (pedagogik) – bu modellar yordamida pedagogik voqelikni o‘rganish usuli; pedagogik modellarni loyihalash va qurish jarayoni” [133].

Shtoff ta’rifiga ko‘ra, “model – tadqiqot obyektini aks ettiruvchi yoki takrorlaydigan, uni o‘zgartirishga qodir bo‘lgan vizualizasiya yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim” [142].

A.M. Novikov “Ta’lim loyihasi (ta’lim faoliyati metodologiyasi)” asarida loyihalanayotgan model belgilangan talablarga javob berishi bilan birgalikda ingerentligi, soddaligi va adekvatligi bilan ajralib turishi lozimligini uqtiradi. Demak, modelga qo‘yilgan talablarning bajarilmasligi kutilgan natijalarga erishilmasligiga, amaliyotga joriy qilishda muammolar tug‘ilishiga, ya’ni sifati va funksionalligining tushib ketishiga sabab bo‘ladi.

Modelning ingerentligi (lot. Inhaerentis – yopishgan, ildiz otgan; ing. inherent – nimaningdir ajralmas qismi), ya’ni mavjud muhitga muvofiqligi joriy tizim xususiyatlari, davlat va jamiatning ta’lim sohasiga qo‘yayotgan talablari hamda buyurtmasiga mosligi nuqtayi nazaridan qaraladi [86; 66-b.]. Shunga muvofiq, tadqiqotimizda loyihalanayotgan modelni malaka oshirish ta’limi maqsadini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirish, xalq ta’limi xodimlarini uzlucksiz kasbiy rivojlantirish tizimining tarkibiy qismi sifatida motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning barcha turlari va shakllarini uyg‘unlashtirish orqali modellashtirishga e’tibor qaratdik. Model komponentlari, ularning tarkibiy elementlari u bilan ishlash hamda amaliyotga kiritish vositasi sifatida qo‘llash soddaligini ta’minlovchi o‘zaro bog‘liq, alohida qismlardan iborat

bo'lgan butun va ma'lum ketma-ketlikdagi tizimni ifodalaydi. Modelning adekvatligi esa belgilangan komponentlar asosida o'qituvchilarni UKRga kompetentli-motivatsion yondashuvning imkoniyatlaridan foydalanib, malaka oshirish uzlusizligini ta'minlash va pedagoglar kasbiy rivojlanishiga doir maqsadlariga erishishni bildiradi.

Sohadagi o'zgarishlar, jumladan, ta'lim tizimidagi ba'zi tub burilishlar, qadriyatlarni qayta yo'naltirish, bu jarayonda o'qituvchilarning rolini jamoatchilik tomonidan tushunish va boshqalar, o'qituvchilarning malakasiga, ularning malaka darajasiga va zamonaviy ta'lim uchun ishslashga tayyorligiga qo'yiladigan yangi talablarni belgilaydi. Shuning uchun o'qituvchilarning kasbiy takomillashuvga motivatsion tayyorgarligi va maktab o'qituvchilari malakasini oshirishning o'quv dasturlariga o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi uzlusiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik muammolari o'zining yaxlit ilmiy yechimiga ega bo'lishi zarur.

Pedagogika sohasida uzlusiz kasbiy rivojlanishni tashkil etish va olib borish borasida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, o'qituvchilarning UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish muammosi yetarlicha o'rganilmagan. Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki,

- o'qituvchining innovatsion faoliyatini belgilovchi mezonlar ishlab chiqilgan va bu faoliyatni shakllantirish texnologiyasi, malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning amaliy ahamiyati yoritilgan [82];

- xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish sohadagi barcha tur, resurs, shakl va tajribalarni integratsiyalash va ko'p vektorli modelning tarkibiy komponentlari mazmunini belgilash hamda pedagogning kasbiy rivojlanishida ilmiy-metodik kuzatuvni amaliyotga joriy qilishning zaruriy omillariga ustuvorlik berish asosida kengaytirilgan [86];

- o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini uzlusiz rivojlantirish mexanizmining komponentlari (motivatsion, kognitiv,

protsessual, kreativ) va amalga oshirish bosqichlari (mustaqil malaka oshirish, o'quv kurslari, mahorat darslari) texnologik taraqqiyot hamda o'qitilayotgan fanlar bo'yicha yangiliklarni o'zlashtirish dinamikasini hisobga olish asosida aniqlashtirilgan [73; 11-b.];

- pedagogik kadrlar kompetentligini rivojlantirishning strategik tuzilmasi kompetensiyaviy mezonlar(ijtimoiy, kasbiy, refleksiv, akmeologik)ni malaka oshirish jarayonida innovatsion faollikni rivojlantirish usullari (refleksiya sinergiyasi, zaruriy motivlar) bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan [99; 8-b.];

- o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirishning boshqaruv tizimi komponentlari (motivatsion-qadriyatli, kasbiy-faoliyatli, refleksiv-kommunikativ) onlayn tarmoq hamkorligi asosida mazmunan takomillashtirilgan [114; 8-b.];

- malaka oshirish jarayonida ta'lim sifati hamda boshqaruviga alohida e'tibor qaratilgan [72];

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari malakasini oshirish tizimining o'quv-metodik ta'minoti va ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish tizimi takomillashtirilgan [107; 119];

- malaka oshirish jarayonlarining uzlusizligi va uzviyligidan ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantiruvchi, harakatchanligini ta'minlovchi pedagogik tizim sifatida foydalanish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan [120; 16-b.].

Yuqoridagi o'rganishlardan farqli ravishda, tadqiqotimizning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun "tayyorlik" atamasiga umumiy ilmiy yondashuvlarni chuqur tahlil qilishga e'tibor qaratdik. Shunday qilib, tayyorlik hodisa sifatida ilmiy tadqiqot predmeti bo'lib, u turlicha ta'riflangan:

- shaxsning ma'lum bir jarayondagi ruhiy holati [57; 339-351-b.];

- jamiyatdagi ijtimoiy omillar ta'siri ostida bajaradigan muayyan turdag'i xatti-harakati (faoliyati) [39; 1-10-b.];
- shaxsnинг kasbiy ahamiyatga ega qimmatli fazilatlariga, mahorat va insonparvarlikka yo'naltirilganligi [67; 76-92-b.];
- o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, o'zini-o'zi tarbiyalashi inson xatti-harakatlarini tartibga solishning sifat ko'rsatkichi [50; 83-87-b.];
- ongda ruhiy stereotiplarning yo'qligi bilan bog'liq rivojlangan shaxsiy munosabatlar tizimi (kognitiv to'siqlar) [66; 1-11-b.].

Psixologik va pedagogik manbalarni tahlil qilish "o'qituvchining kasbiy va pedagogik faoliyatga tayyorligi" atamasiga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi. Bu pedagogik hodisaning tadqiqlash mazmuni umulashadirilganda, olimlar tomonidan asosan ikki nuqtayi nazardan o'rganilgani ma'lum bo'ldi:

a) kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlikning umumlashtirilgan natijasi (kasb tanlash, kasbiy ta'lim, kasbiy o'zini-o'zi belgilash) [43; 369-b., 64; 966-974-b., 70; 86; 88; 128];


b) kasbiy funksiyalarni yetarlicha yuqori darajada bajarishga imkon beradigan maxsus bilim, ko'nikma va malakalar majmui, o'quvchilarning muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi omillarni tekshirish qobiliyati [38; 1-13-b., 46; 15-23-b., 85; 116].

Shaxsning oliy ta'lim muassasasidan boshlab, kasbda faoliyat boshlagunigacha bo'lgan davridagi eng muhim turtki – bu undagi o'z kasbiga nisbatan motivatsiyasi bo'lib, uning saqlanib qolishi va, ayniqsa, ichki motivatsiya shakliga o'zgarishi, keyinchalik uning kasbiy faoliyati bilan bog'liq davr talablariga moslashishi, jumladan, kasbiy rivojlanishni integrativ xarakterdagi uzluksiz ta'limga aylantira olishi uchun asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Pedagogning motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish doirasidagi tadqiqotlarimizni har tomonlama tahlil qilish bizga "motiv", "motivatsiya", "tayyorlik", "o'qituvchining uzluksiz kasbiy ta'limga tayyorligi", "kompetensiya", "kompetentlikni rivojlantirish" atamalarining ko'plab talqinlarini umulashdirish va o'qituvchining

o‘z ustida ishlashga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, biz “o‘qituvchining uzlusiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorligi” toifasini subyektning pedagogik faoliyatni amalga oshirish qobiliyati bilan bog‘ladik, maxsus bilim, ko‘nikma, fazilatlar, mahorat va qadriyatli-motivatsion amaliy tajriba kabi yaxlit shaxsiy-kasbiy ehtiyojdan iborat bo‘lgan qiymat yo‘nalishlari asosida UKRni tashkillashtirish hamda joriy etish lozim, degan xulosaga keldik.

UKRga “motivatsion tayyorlik kompetensiya”si – bu o‘qituvchining shaxsiy samaradorlikka erishish uchun mustaqil ravishda kasbiy ta’limni uzlusiz egallab borishga zaruriy intilishni ko‘rsata olish va rivojlanishga sharoit yaratish orqali faoliyatidagi muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Pedagogning motivatsion tayyorlik kompetentligi kasbiy kompetentligining tarkibiy qismi bo‘lib, oliy ta’lim muassasalaridagi (keyingi o‘rinlarda – OTM), shuningdek, rasmiy va norasmiy ta’limda tizimli, maqsadli kasbiy tayyorgarlik, tanlovda, mas’uliyat, o‘zini anglash natijasidir. UKRni ta’minlovchi jarayonlarning ketma-ketligi, uzlusizligi, o‘z-o‘zini o‘qitishni tashkil etish hamda amalga oshirishga tayyorligini ifodalovchi o‘qituvchida motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish bosqichlari quyidagi modelda o‘z aksini topgan (2.1-rasm).



2.1-rasm. O'qituvchida motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish bosqichlari modeli

O'r ganilgan adabiyotlar, tahlillar va ilmiy izlanishlarimiz tadqiqotimizning asosiy tushunchasiga nisbatan mualliflik ta'rifini shakllantirish imkonini berdi:


O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish – tavsiflovchi, funksional va prognostik model xususiyatlarini o'zida jamlagan, uzluksiz kasbiy rivojlanish amaliyotini butun yoki uning alohida bo'laklari sifatida sxematik tarzda namoyon bo'luvchi belgilar tizimi yordamida shakllangan mantiqiy konstruksiyalarni ifodalovchi, motivatsion tayyorlikning algoritmlashgan modellashtirish bosqichlaridan iborat bo'lgan uzluksiz kasbiy rivojlanish istiqbollari hamda ijobiy natijalarga olib boruvchi jarayondir.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish modelini yaratish hamda uning komponentlarini tavsiflash uchun asosli dalillarga ega bo'lish sharoitini taqdim qildi (2.2-rasm).

O'qituvchining kasbiy o'sishga motivatsion tayyorligi strukturaga ega bo'lgan tarkibiy-funksional kompleksning uzluksiz rivojlanishi bilan ta'minlanadi. Ushbu kompleks navbatdagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: motivatsion, qadriyatli, kognitiv, faollashtiruvchi, hissiy-irodaviy va refleksli.

Ishlab chiqilgan model obyektiv xususiyatlarni namoyon qiluvchi ko'plab mezonlarga (ilmiy, tizimli, maqsadli, dizayn, tizim tarkibiy qismlarining izchilligi, o'zaro bog'liqlik, ratsionallik, samaradorlik va boshqalar) muvofiqligini o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, bunday xususiyatlar hodisaning miqdoriy o'lchovini aniqlashga, maqsadga erishish darajasini baholashga yordam beradi. Yuqorida keltirilgan mualliflik modelida ta'kidlangan xususiyatlar hisobga olindi va u to'rt blokda shakllantirildi: 1) konseptual (metodologik yondashuvlar, prinsiplar); 2) semantik (tayanch (fundamental), amaliy va metodik tayyorgarlik; uslubiy, nazariy, amaliy va texnologik bilimlar; kreativlik, dizayn, gnostik, tashkiliy, kommunikativ, nazorat va baholash ko'nikmalari); 3) protsessual (bosqichlar, shakllar, usullar, texnologiyalar, o'quv qo'llanmalari); 4) samaradorlik (tarkibiy qismlar, mezon va ko'rsatkichlar, tayyorgarlik darajalari).

Ilmiy yondashuvlardan foydalangan holda, tadqiqotimiz maqsadini aniqladik va uni amalga oshirish uchun belgilangan vazifalarni bajarish jarayonida quyidagi savollarga javob izladik:



2.2-rasm. O‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish modeli

1. O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rvojlanishga motivatsiyasini kuchaytirishda ular zarur bo'lgan pedagogik yondashuvlar, vositalar, shakllar va usullar amaliy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayoniga uzluksiz ravishda qanday jalg qilinadi? 2. Motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning asosiy texnologiyalarini qanday aniqlash mumkin? 3. Har bir o'qituvchi o'zining individual rivojlanish dasturini ishlab chiqishi va amalga oshirishi bo'yicha zaruriy bilimlarni qanday o'zlashtirishi kerak? 4. Psixologik-pedagogik yordam zaruriyatini anglashi va hamkorlik qilish qobiliyatini qanday rivojlantirish mumkin? 5. Uzluksiz kasbiy rivojlanish doirasida shaxsiy rivojlanishning individual ta'lif trayektoriyasini loyihalay oladimi va uni kasbiy faoliyatida qanday amalga oshiradi?

Modelning konseptual bloki o'qituvchining UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish samaradorligini ta'minlaydigan metodologik yondashuvlar (aksiologik, androgogik, antropologik, kompetensiyaviy, sinergetik, tizimli, faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan), shuningdek, model uzluksiz kasbiy rivojlanishning xususiyatlari va maxsus shartlari bilan belgilanadigan (uzluksizlik, tizimlilik, faollik, subyektivlik, hamkorlik, qiymatlilik, refleksivlik) tamoyillarga asoslanadi. Blok tarkibi mohiyatan quyidagi mazmun uchun xizmat qiladi:

Aksiologik yondashuv – ilmiy bilishda qadriyatlar olamini anglatib, “aksiologik ong, qadrlash tuyg'usi, aksiologik bilish, qadrlash tamoyiliga tayanib to'plangan qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar tizimidir” [102; 47-b.].

• *Androgogik yondashuv* – katta yoshli ta'lif oluvchilarning individual aniq tasavvur va motivga egalik, o'z-o'zini faollashtirish, boshqarish, rivojlantirishga doir ichki ko'rsatma, ijtimoiy va madaniy tajriba, ehtiyoj, ta'lif olishda o'z resurslarini tejashdan manfaatdor, malaka oshirishda o'quv jarayonini boshqarishning teng huquqli a'zosi belgilariga asoslanadi [85; 91; 92]. Mazkur holatda uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida o'qituvchi hamda

tinglovchining o'zaro ta'siri to'liq ta'minlanadi va androgogning quyidagi funksiyalari mustahkamlanadi: maslahatchi, supervizor, moderator, fasilitator [76; 100-b.].

Antropologik – zamon va makon xususiyatlaridan kelib chiqib, insonlarning o'zaro o'xshash hamda farqli xususiyatlarini ilmiy va gumanitar jihatdan tadqiq qiluvchi yondashuvdir. Shaxsiyatni yorqin namoyon qiluvchi ushbu yondashuvda o'qituvchi biz hozir qandaymiz va ta'lim rivoji qay tomonga yo'naltirilgan, kabi savollarni o'ziga berishi, unga javob izlashi nazarda tutilgan.

Kompetensiyaviy yondashuv – zamonaviy ta'limning barcha bosqichlari kabi malaka oshirish bo'g'inini ham rivojlantirishning ustuvor yo'nalishidir. Kompetensiyaviy yondashuv negizida o'z mavqeyini o'zi belgilashi, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon qilish va kasbiy kelajagini ko'ra olish motivatsiyasi turadi. Jumladan, pedagoglarning kasbiy kompetentliligiga yo'naltirilgan, faoliyatida yuzaga keladigan muammo va qiyinchiliklarining mavjud yechimlarini bermasdan, mustaqil izlanishida yo'nalishga egalik tarzida tushuniladi. Aynan ushbu yondashuv o'qituvchilarining UKRga munosabatini o'zgartirish, uning rivojlanishga tayyorlik motivatsiyasini kompetentlik darajasiga yetkazishga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Sinergetik yondashuv – murakkab tizimlarda barqaror strukturalarning hamda o'z-o'zini tashkil etishning, boshqarishning paydo bo'lishiga olib keluvchi, nihoyatda ko'p tizim qismlarining hamkorlikdagi o'zaro ta'sirlarini ifodalaydi [30; 376-380-b.].

Fikrimizcha, ushbu yondashuv pedagogik tizim ochiqligi, uning faolligi, o'z rivojlanish yo'lini erkin tanlash, o'qituvchining o'zini rivojlantirishdagi umumiyligi hamkorligi shart-sharoitlarini talab qiluvchi universal metodologik paradigma sanaladi.

Tizimli yondashuv – obyekt va hodisalarini tizim sifatida o'rGANISHGA asoslangan yondashuv bo'lib, bunda UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish muammosini alohida emas, balki atrof-muhit bilan munosabatlarning birligida ko'rib chiqishni,

har bir bog'liqlik, jumladan, tarkib mohiyatini tushunishni, umumiyligi va xususiy maqsadlar o'rtaida assotsiatsiyalar yaratishni talab qiladi.

Faoliyatli yondashuv – UKRni tashkil qilishda kasbiy faoliyat davomida yuzaga keladigan murakkabliklar, muammolar yechimini mustaqil topish, kasbiy-shaxsiy rivojlanishiga doir bilim va ko'nikma, malakalarni mustaqil egallash, "ichki men"ini tushungan, ehtiyojlarini anglagan hamda ta'lim motivatsiyasiga ega shaxsni yaratishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida qaraladi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – pedagogning o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va ehtiyojlari, kognitiv stillari, UKR jarayonidagi strategiya hamda motivatsiyalarini hisobga olishga asoslanadi. Kasbiy o'sishi, o'z-o'zini anglashi, ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish jarayonlarini hamda qo'llab-quvvatlash va ta'minlash vositasida shaxsiy-kasbiy rivojlanishni rejalashtirishga mo'ljal olishni nazarda tutadi. Bu yondashuv o'qituvchilarga kasbiy ehtiyojlariga asoslangan holda, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish, malaka oshirishning shakl, usul, vaqt hamda muddatlarini belgilashda erkinligi va mustaqilligining birinchi darajadaligi bilan amalga oshiriladi.

Uzluksizlik prinsipi – tayanch prinsip bo'lib, pedagogning butun umri, jumladan, pedagogik faoliyati davrida ta'limga doir salohiyatini rivojlantirishdan to'xtamaydigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida qaraladi. Yuqoridagi yondashuvlarning mavjud prinsiplari, shuningdek, tizimlilik, faollik, subyektivlik, hamkorlik, qiymatlilik, refleksivlik tamoyillari uzluksizlik prinsipi bilan bir zanjir hosilasida natijaga yetaklovchi konseptuallikni o'zida aks ettiradi.

Semantik blok oliy ta'lim muassasalarida, shuningdek, rasmiy va norasmiy ta'limda shakllantirilgan va takomillashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui bilan ifodalanadi. UKR uchun o'qituvchilarni motivatsion tayyorlash vazifalarini o'quv va uslubiy materiallardan iborat modelning semantik blokini

optimallashtirmasdan, malaka oshirish kurslari, seminarlar, treninglar, mahorat darslari va boshqa shu kabi dasturlarni ishlab chiqmasdan samarali amalga oshirish mumkin emas. Bunda tayanch ta'lilda o'tkaziladigan treninglar o'qituvchilarning metodik bilimlarni o'zlashtirish va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Amaliy ta'lim fundamental bilimlarni takomillashtirsa, metodik tayyorgarlik o'qituvchilar tafakkurining didaktik va uslubiy yo'nalishini belgilaydi. Ushbu tuzilma mazmunan o'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion kompetensiyasini oshiradi.

Protsessual blok diagnostik, motivatsion, faollashtiruvchi va tahliliy bosqichlarni o'zida ifodalovchi pedagogik tizim sifatida ko'rildi. Diagnostik va motivatsion bosqichlar, nafaqat o'qituvchilarning pedagogik ta'lim tizimini takomillashtirish hamda tegishli o'quv-uslubiy yordamni ishlab chiqish shartlarini aniqlashga qaratilgan, balki o'qituvchining motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish pog'onalarini ham o'z ichiga oladi. Targ'ibot faoliyati bosqichi UKRni ilmiy, me'yoriy, psixologik-pedagogik va korreksion qo'llab-quvvatlashni o'zlashtirishga yordam beradigan eng samarali ta'lim shakllari, usullari, texnologiyalari va o'quv qo'llanmalaridan foydalanishni, tahlil bosqichi xulosalar chiqarish, o'qituvchilik tajribasini aks ettirish asosida shaxsiy rivojlanish istiqbollarini rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Blokning yaxlitligi va samaradorligi o'qituvchining UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning izchilligi bilan ta'minlanadi.

Modelning samaradorlik bloki ta'lim jarayonining monitoringi va uni yo'naltirish, to'g'rilab borish bilan bog'liq chora-tadbirlarni, shuningdek, ta'limdagি o'zaro ta'sir ishtirokchilarining o'zini o'zi nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu blok tarkibiy qismlarning rivojlanish darajasini baholashda o'qituvchilarning motivatsion tayyorlik kompetentligining yakuniy natijasini aniqlashtirishga qaratilgan. Pedagogik modelning muvaffaqiyatini ilmiy asoslangan

mezonlar va o'qituvchi tayyorligining tegishli ko'rsatkichlari belgilashi mumkin. Motivatsion tayyorlik kompetentligining mezonlari va ko'rsatkichlari asosida: past, o'rtacha, yetarli, yuqori darajalar aniqlandi hamda samaradorlik blokining amaliy ta'siri tajriba-sinov ishlari davomida ishlab chiqilgan diagnostika vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu boradagi mulohazalarimiz 3-bobda kengroq tavsiflanadi.

Umuman olganda, izlanishlarimiz natijasida quyidagicha xulosalarga kelindi:

- g'oya, maqsad, bosqichlardagi ketma-ketlik, izchillik, uzviylik, xatti-harakatlardagi algoritmlashtirilganlik, o'z-o'zini boshqarish, shaxsiy samaradorlik, o'qituvchi faoliyati hamda o'quvchilaridan kutilmalarining aniqligi loyihalashtirilgan modelni amalga oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qilishi aniqlandi;

- xalq ta'limi xodimlarining uzlucksiz malaka oshirish ta'limi maqsadini ro'yobga chiqarish, kasbiy mahoratning tarkibiy qismi motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning barcha turlari va shakllarini uyg'unlashtirish orqali modellashtirish zaruriyati o'rganildi.

- tadqiqot davomida "tayyorlik" tushunchasiga ilmiy-nazariy yondashish natijasida tayyorlik ilmiy-tadqiqot predmeti bo'lib, bir qancha ishlarda hodisa sifatida talqinga egaligi tahlillandi;

- UKRni ta'minlovchi jarayonlar ketma-ketligi, uzlucksizligi, o'z-o'zini o'qitishni tashkil etish, amalga oshirishga tayyorligini ifodalovchi o'qituvchida motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish bosqichlari modeli hamda o'qituvchilarning uzlucksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish modeli shakllantirildi.

2.2-§. Motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish bosqichlari, shakllari va metodikasi

Ta’lim tizimidagi islohotlarning o’zgarishi pedagogik jarayonlarga kompetensiyaviy, tizimli, innovatsion, motivatsion kabi turli yondashuv va texnologiyalarni faol joriy etish bilan chambarchas bog’liq. Jumladan, umumta’lim jarayoniga tatbiq etilayotgan ijtimoiy burtmaning, davr talablarining amaliy samarasi o’qituvchining kasbiy-pedagogik ijodkorligi, xarakteri va uning rivojlanganligi darajasiga bevosita daxldor. Xalq ta’limi tashkilotlarida shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni, ilmiy-metodik ta’minot hamda axborot-ta’lim muhitini shakllantirish, o’quv faoliyatining komponentlarini tahlil etish asosida uzlusiz kasbiy rivojlanish, kasbiy-pedagogik ijodkorlik muammolariga yechim topish, ta’lim sifatini oshirishni kompleks boshqarish, ta’lim oluvchilarning motivatsion tayyorlik, kognitiv-kreativ kompetentligi(hozirjavoblik, yangiliklarga kirishimlilik, tayyorlik, tolerantlik, moslashuvchanlik, bilish, tushunish, anglash, ijodiy fikrlash, analiz, sintez, mujassamlashtirish qobiliyatları)ni innovatsion texnologiyalar vositasida rivojlantirishning yangi metodlari mohiyatini ochib berishda o’qituvchi kasbiga motivatsion yondashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanish zaruratga aylanmoqda.

Pedagogika va psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlarda motivatsiya xulq-atvorni hamda uning yo’nalganligi, faolligi, ichki ta’sir (turtki) kuchiga egaligini bildiruvchi psixologik sabablar yig’indisi tarzida e’tirof etiladi. Jumladan, J.G’.Yo’ldoshev fikricha, o’qituvchining shaxsiy-kasbiy sifatlaridan biri “ularga xos bo’lgan pedagogik faoliyat sababli doimo o’qishga motivatsion tayyorlik”dir. Ko’pincha o’qishga bunday prinsipial tayyorlik ularning pedagogik faoliyatidagi biror vaziyatlar bilan yoki o’z malakasini oshirish, uzlusiz kasbiy rivojlanish imkoniyati to’g’risidagi axborot tufayli

dolzarblashadi [88; 124-b.]. Motiv shaxs xulqining moyilligi va uning natijasida amalga oshirayotgan xatti-harakatlarini tushuntiruvchi sababni nazarda tutadi [89; 78-b.].

Motivlarning o'sib borishi, motivlashgan yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishi, faoliyat muhiti doirasidagi o'zgarishlar tufayli amalga oshirilishi E.G'oziyev tomonidan ta'kidlanadi. Bu o'rinda faoliyat faol vaziyat hisoblanib, mavjud ehtiyojlar, qiziqishlar doirasidagi psixologik holatlardan uzoqlashib boradi, keyinchalik yangi qiziqish, ehtiyoj, intilishlarni shakllantiradi, motivlar mohiyati va shakllarini o'zgartiradi [130; 158-b.]. Ya'ni, "shaxsda muqarrar qiyinchiliklar, noqulay vaziyatlar hamda boshqa holatlarni yengib o'tish, muammolarga yechim topishda bor kuchini sarflab, maqsadga sabr-toqat, sobitqadamlik bilan intilib faol harakatlanishga xohish uyg'otadigan kuchli, yorqin, ichki motivlar mavjud bo'lsa, har qanday ko'zlangan jarayon samaraliroq kechadi va sifatli natijalar beradi" [104; 352-b.].

Motivlarni faoliyatga kiritib borish, motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishda motivlashtirish muhim ahamiyatga ega. Motivlashtirish ta'lim beruvchi va oluvchilarning faolligini ta'minlash, qiziqishlarini shakllantirish hamda yuksaltirish, takomillashtirib borishning bir necha darajali, murakkab tizimi tariqasida ham e'tirof etiladi. Unda "...ehtiyojlar, qiziqishlar, intilishlar, e'tiqod, maqsad, orzu-istak, manfaatlar, talablar, qadriyatlar, urf-odatlar va boshqalar mazkur tizimning tashkil etuvchilari hisoblanadi. Motivlashtirish ma'lum bir ehtiyojlardan kelib chiqib, o'quvchilar faoliyatini psixologik ta'sir ko'rsatish yo'llari bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir" [80; 33-b.].

Demak, motivlashtirish ruhiy omil sifatida pedagoglarning tegishli jarayonlardagi faolligini, harakatlari sababini, kasbiy mahoratini uzlusiz rivojlantirishga ichki rag'batni ifodalaydi. Ya'ni, motivlashtirish pedagogning muayyan ehtiyojini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Ehtiyoj esa insonni biror bir faoliyatga

undovchi, harakatlantiruvchi va qo'zg'atuvchi eng kuchli motivdir (ushbu tushuncha birinchi bobda keng tavsiflangan).

Motivatsion tayyorlik ustida ishlar ekanmiz, uning pedagogik talqinini, ifodalashda motivatsiyaning inson ruhiy holatlarining natijasi ekanligini ta'kidlamasdan, motivatsiya borasidagi psixologik nazariyalarni o'rGANmasdan, o'qituvchining kasbiy amaliyotiga joriy etish tavsiyalarini ishlab chiqmasdan ishning tub mohiyatini yoritib bo'lmasligiga ishonchimiz komil bo'ldi. Dissertatsiyada ilgari surilayotgan bu g'oya, shu paytgacha psixologik atama va tushuncha sifatida o'rGANilgan motivatsion tayyorlikni o'qituvchining uzlucksiz kasbiy rivojlanishidagi pedagogik asoslarini aniqlashtirish, ijtimoiy buyurtmaga nisbatan motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning komponentlari, metodlari, amaliy ishlanmalarini shakllantirishga qaror qilindi. Motivatsiyaga doir nazariyalar birinchi bobda atroficha yoritilgan bo'lib, keltirilayotgan tavsif tadqiqotimiz davomida ta'lim jarayonida amaliyotda ularning ayrimlaridan foydalanish usullariga asoslanilgan (2.1-jadval).

2.1-jadval

Motivatsion nazariyalardan pedagogik amaliyotda foydalanish

Yo'nalishlar	Mualliflar	Asosiy g'oya	Pedagogik kasbiy amaliyotda foydalanish
Mazmunni ifodalovchi "Tarkib" nazariyalar	A.H.Maslou (Abraham Harold Maslow)	ehtiyojlar iyerarxiysi, ehtiyoj darajalari va ularni qondirish	Har bir ehtiyojni piramida bo'yicha qondirib borish: qulay sharoit, munosib ish haqi, qadrlash, anglash turli imtiyoz va rag'batlar, UKR makoni, individuallik
	D.K.Makkelleland (David Clarence McClelland)	Muvaffaqiyat, mansublik (birlashish) va kuchga bo'lgan ehtiyoj	Ehtiyojlarni aniqlash, kuzatish, natijalarni aniqlash, vaziyatlar, javobgarlik, mas'uliyat, hamkorlik, jamoaviy kasbiy rivojlanish

	F.I.Gerzberg (Frederick Irving Herzberg)	G'ayratni pasaytiruvchi "gigiyenik" va "rag'batlantiruvchi" (motivator) omillar	Kasbiy faoliyatdagi motivatorlik, rag'batlantiruvchi hamda o'z-o'zidan rag'batni pasaytiruvchi, motivatsiyani tushiruvchi omillar, ish sharoiti, vaziyat
Faoliyatga taalluqli "Jarayon" nazariyalar	B.F.Skinner (Burrhus Frederic Skinner)	Rag'batlantiruvchi: bajarish (tasdiqlash), aniqlash, kuchaytirish, o'zgarishni baholash	Xatti-harakat davomiyligi, mas'uliyat yuklash, bir doirada birlashish, ijobiy yoki salbiy oqibat, kuchaytirish, o'zgarishlarni baholash
	V.H.Vrum (Victor Harold Vroom)	Motivatsiya, kutish, yordam, valentlik; shaffoflik, munosiblik	Turtki bo'ladigan qiymat, kuch sarflash va ishslash darajasi bog'liqligi, anglash, baholash, mukofotning sezilgan kuchi
Faoliyatga "Munosabat" nazariyalar	D.M.Makgregor (Douglas Murray McGregor)	Ikki tipdagi xodim, X: nazorat, jazolash, rag'batlantirish; va Y: tabiiylik, mas'uliyat, ijodiy shaxs	X (o'qituvchi): mas'uliyatsizlik, dangasalik, kognitivlik, faollik darajasi past, tashabbusdan qochish, jazo yoki rag'bat tahdidi; Y: ishslashga tabiiy ehtiyoj mavjudligi, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, kompetentlilik, ishslashga undash.

Yuqorida tahlilga tortilgan nazariyalar asosida o'qituvchilarning UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-amaliy, tashkiliy-targ'ibot yo'nalishlarini belgilash imkoniyati paydo bo'ldi:

- o'qituvchining kasbiy faoliyatida birlamchi va ikkilamchi talablarni aks ettiruvchi, jumladan, biri ikkinchisining ustuvorligiga muvofiq joylashgan besh darajali ehtiyojlar iyerarxiyasining [51; 55-b.] bosqichma-bosqich qondirilishi uning keyingi darajasi uchun xizmat qiladi, chunki eng quyi ehtiyoj hech bo'limganda qisman

qondirilmaguncha yuqori daraja qo'zg'alishga ega bo'lmaydi, to'xtatiladi, ya'ni: fiziologik: qulay sharoit, yetarli maosh; xavfsizlik: o'qituvchining muhofaza qilinganligi, tibbiy sug'urta va b.; ijtimoiylik: hamkasblar va jamoadagi iliq munosabat, faollik; o'zini qadrlash: hurmat, e'tirof, yuqori maqom (lavozim), mas'uliyat; o'z-o'zini anglash: faoliyati natijalarini tahlil qila olish, uzlucksiz o'rganish, o'sish, kognitiv kompetentlilikning rivojlanganligi, shaxsiy samaradorlik, targ'ib qilish va kreativlik;

- pedagog xodimda yangi ehtiyojlarni yaratish emas, balki mavjudlarini qondirish [49], ya'ni muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj: malaka yoki mahoratga erishish va o'zini namoyish qilish zarurati, bunda ilgari bajarmagan vazifalarida o'zini sinab ko'rish, faoliyatidagi natijalarini o'z harakatlariga bog'lab kuzatish, o'zini tahlil qilish, xatolardan xulosa chiqarish; mansublikka bo'lgan ehtiyoj: hamkabslari bilan bir jamoada birlashganini his qilish, mehr-muhabbat, tenglik, tegishli bo'lish, javobgarlik, g'alaba va muvaffaqiyatlardan birgalikda quvonish; kuchga (energiyaga) bo'lgan ehtiyoj: faoliyatini yoki boshqa o'qituvchilar ishini boshqarish, yo'naltirish, tashkilotning ijtimoiy-huquqiy me'yorlariga amal qilish, noo'rin munozaralardan qochish, jamoadagi salbiy raqobatbardosh vaziyatlardan emas, hamkorlikdan zavqlanish, kuchli guruhda bo'lish;

- o'qituvchilarni ko'proq ishlashga bevosita undovchi omillar [44]: qo'shimcha mas'uliyat, tan olinish uchun ishlash, lavozimi ko'tarilishiga imkoniyat, teskarisi esa gigiyena omillari (rag'batlantirish mumkin, ammo o'z-o'zidan o'qituvchini ko'p ishlashiga to'siq bo'ladigan omillar): o'rtacha ish haqi, jamoadagi nosog'lom muhit, avtoritar yondashuv, vaziyatni ijobiylashtirish usuli demokratik yondashuvni qabul qilish kabi UKRga doimiy rag'batlantiruvchi "motivatsion mazmunni" ifodalaydigan yo'nalish;

- o'qituvchining o'z xatti-harakatlarini kuzatishi va shu asosda tarbiyalanib borishi, ya'ni ijobiy harakatlar [62]: o'qituvchi faoliyati davomida o'zini namoyish qilgani uchun olgan mukofotlari; salbiy

harakatlar: pedagog xodimning yillar davomida tarbiyalanmagan, salbiy jihatini tarbiyalab (olib tashlaydi) o‘zini yaxshi jihatdan namoyon qilgani uchun mukofotlash; jazo va to‘sinqinlik; jarayonda doimiy kuzatish va zaruriy tadbirlarni olib borish asosida kerakli xatti-harakatga intilishni kuchaytirish, doimiy tasdiq yoki vaqtivaqt bilan boshqaruvdagi usullar orqali faollashtirish;

- avvalgi nazariyalarning ko‘plab jihatlarini o‘zida birlashtirgan, o‘qituvchining muqobil xatti-harakatlari to‘plamidan ongli tanlashga asoslangan, kutilmaga aylangan natijaning doimiy ravishda ijobiy his-tuyg‘ularini maksimallashtiruvchi, salbiylarini eng kichik darajada minimallashtiruvchi V.Vruumning kutish nazariyasi [55; 243-253-b., 63], ya’ni M (motivation – motivatsiya): o‘qituvchi tomonidan tanlangan vaziyatning qanchalik muhimligini ko‘rsatuvchi turtki – kuch, xulq-atvorni belgilovchi xususiyatlardan biri; E (expectancy - kutish): pedagogning o‘z xatti-harakatlarini natijalarga olib borishini anglashi, natijasini kutish va samaralilik darajasida harakatlanishi, yetarli quvvat, vaqt sarflashini baholay olishi; I (instrumentality – instrumentallik, yordam): ma’lum maqomga ega bo‘lishi, mukofotlanishi, shuningdek, ish haqi miqdori ishslash sifati bilan qanchalik bog‘liqligini tushunishi, faoliyat va natijani uzviylashtirishi (attestatsiyaga tayyorlanish darajasi toifani (rivojlanish nuqtalarini) belgilashini idrok qilishi), V (valence – valentlik): natijadan kelib chiqadigan mukofotning kuchi, ya’ni erishilgan qiymatni amaliyatga kirituvchi “jarayon” yo‘nalishi;

- o‘qituvchining ishga bo‘lgan munosabatini aniqlash va shunga ko‘ra motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish usullarini tanlashga ko‘maklashuvchi X tipidagi: tabiatan dangasa, o‘quv faoliyatida muammo tug‘diruvchi, ambisiyaga ega bo‘lmagan, tashabbuslardan qochuvchi, jazolash yoki rag‘batlantirish, avtoritar uslub orqali ishslashga majbur qilinuvchi pedagogning asosiy xususiyatlari; Y tipidagi: kasbiy faoliyatiga tabiiy ehtiyojning mavjudligi, moslashuvchan, mas’uliyat bilan harakatlanuvchi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, mahorat, davomiy o‘qish yo‘llarini izlovchi,

kreativ, tashabbuskor, demokratik uslubni ma'qullovochi pedagogning xarakter xususiyatlari tavsifiga asoslangan faoliyatga munosabat yo'nalishi. Ushbu yo'nalishni amalga oshirishdagi muhim jihat munosabatlarni o'zgartirib borish, avtoritarlikdan demokratik uslubga o'tish g'oyasini ilgari surishi bilan ustuvorlashadi [65].

Avvalgi paragrafda (2.1) sanab o'tilgan yondashuvlar, tamoyillar va yuqorida ta'kidlangan yo'nalishlar o'qituvchilarning motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy izlanishlarimiz, o'rganilgan adabiyotlar tahlili natijasida pedagoglarni uzlucksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish mazmuni quyidagi tarkibiy tuzilmadan iborat degan, xulosaga keldik (2.2-jadval):

2.2-jadval

O'qituvchilarni UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish mazmunining tarkibiy tuzilmalari

Tarkibiy tuzilma	Mazmun
Motivatsion omillar	Kasbiy ehtiyoj, faollik, pedagogik faoliyatga moslashish, mavjud tajribani yangi bilimlar bilan boyitish, kognitivlik, moslashuvchanlik, o'z-o'zini uzlucksiz rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj, yangiliklarga ochiqlik, hissiy barqarorlik
Shaxsiy-kasbiy yo'nalganlik ko'rsatkichlari	Sabrlik, tolerantlik, mehnat intizomiga rioya qilish, shaxsiy samaradorlik, namuna, hamkorlik, ota-onalar bilan doimiy ishlash, kasbiy burch va majburiyatlarini anglash
O'zgarayotgan kasbiy manbalar va faoliyat mazmunidan xabardorlik	Xalq ta'limi sohasiga oid huquqiy-me'yoriy hujjalarni tanishib borish, o'quv-metodik manbalarni, tegishli adabiyotlarni o'rganish, pedagogik va psixologik (o'quvchi psixologiya) bilimni rivojlantirish, xorijiy ilg'or tajribalardan xabardor bo'lish, zamonaviy o'qitish usullari va texnologiyalarini o'zlashtirish
Kasbiy qiziqish va intilishlar	O'z faoliyati va o'quvchilarni sevish, ularning kuchi va imkoniyatiga ishonish, o'zlashtirish bo'yicha aniq kutilmalarning mavjudligi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga ko'ra, munosabat qila olish, ilg'or tajribalarni o'rganish, o'z yutuqlarini namoyon etish
Kreativ-refleksiv faoliyat natijalari	Faollik vaziyatiga kirishish, ijodiy faoliyatni tashkil etish, o'zini pedagogik faoliyat subyekti tarzida tahlillash, anglash, samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish, uni kuzatish, tashxis, motivlashtirish, maqsadni

	aniqlashtirish, mazmunni shakllantirish, yo'nalishni belgilash, o'z tajribasini tadqiq qilish va baholay olish, kasbiy ehtiyojlari va qiyinchiliklari bilan ishslash usullarini loyihalash, o'qituvchining murakkab, muammoli pedagogik vaziyatlarda tezkor to'g'ri yechimni topish.
--	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish mazmuni tarkibiy tuzilmasining tashkil etuvchilari bo'lgan: motivatsion omillar; shaxsiy-kasbiy yo'nalganlik ko'rsatkichlari; o'zgarayotgan kasbiy manbalar va faoliyat mazmunidan xabardorlik; kasbiy qiziqish va intilishlar; kreativ-refleksiv faoliyat natijalari kabi qismlar ifodalovchi mohiyatiga ko'ra, biri ikkinchisini taqozo qiluvchi, uzviyplashgan, integrativlik, o'zaro bog'liqlik sabablarini ko'rsatib boruvchi komponentlardan iborat.

Tajriba-sinov davrida malaka oshirish kurslari tinglovchilar bilan olib borilgan o'quv-targ'ibot jarayonida quyidagi kasbiy elementlarni rivojlantirishga e'tibor qaratildi:

- uzluksiz kasbiy rivojlanish zaruratinini tan olish va his qilish;
- o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq etish motivatsiyasini kuchaytirish hamda ta'limiy jarayonlarni innovatsion shaklda tashkil etish ko'nikma, malaka va kompetentligini rivojlantirish;
- o'z faoliyatidan kutilmalarini aniqlashtirish va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish;
- sermahsul metod va texnologiyalardan, shuningdek, enerjayzerlar, treninglardan o'rinali foydalanish;
- o'quv-metodik ishlarni samarali tashkil etish tajribasini o'zlashtirish va boyitish;
- pedagogik va ta'limiy jarayonni tashkillashtirish hamda nazorat qilish malakalarini rivojlantirish;
- ustoz sifatida o'quvchilar bilan insonparvarlik, bag'rikenglik munosabatlarini o'rnatish.

UKRga motivatsion tayyorlik bevosita o'qituvchilar faoliyatini tashkil etishning obyektiv va subyektiv, ijodiy-individual

komponentlari bilan tavsiflanadi. Pedagog xodimlarning motivatsion tayyorlik kaompetentligini rivojlantirish uchun ular malaka oshirish va malakadan keyingi ilmiy-metodik kuzatuv jarayonida, shuningdek, yosh mutaxassislar mакtabda olib boriladigan ustoz-shogird tizimi davomida kasbiy mahoratni egallashga, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishga о'rgatiladi. Bugungi kun o'qituvchisi sifatida jamiyatdagi o'zgarishlarga tez moslasha olish, yangiliklarga ochiqlik, kutilmagan vaziyatlarga tayyor turish ko'nikmalarini, kasbdoshlari va ota-onalar bilan hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Ularda mazkur ko'nikmalarning shakllanishi kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish, ta'lim muhitiga yangiliklarni tatbiq etish malakalarini o'zlashtirishlarini kafolatlaydi. Pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuv hamda insonlar bilan samarali muloqotda bo'lish malakasi, o'z ustida ishslash imkoniyatlarini yaratadi.

Jumladan, yosh o'qituvchilarda kasbiy mahoratning shakllanishi ularning shaxsiy sifatlari va faoliyat tuzilishi bilan ham bevosita bog'liq. Uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorlash kasbiy kompetensiya, kasbiy ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish bilan amalga oshadi. Pedagoglarning motivatsion tayyorlik kompetentligi tarkibiga kasbiy sifatlar, individual xususiyatlar, kasbiy motivlar, qiziqish va moyilik kiradi. Kasbga bo'lgan sadoqat, tolerantlik esa o'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari bilan belgilanadi, ya'ni: motivatsion tayyorlik, umumiyo'rta ta'limda faoliyat yuritishga ehtiyoj, kommunikativ, kognitiv kompetentlik, kasbga bo'lgan mehr-muhabbat, hissiy barqarorlik va ijodiy faollik. Kasbiy kompetentlik, bilim, ko'nikma va malaka – mehnat faoliyatini to'la-to'kis amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan xususiyatlar, deyish mumkin.

Ma'lumki, motivlar, motivatsion tayyorlik uchun eng muhim omil qiziqish hisoblanadi. Qiziqish esa diqqat, fikr va xayolning yo'nalgaligi bilan ifodalanadi. O'qituvchilarda o'z-o'zini o'qitishga, uzluksiz kasbiy rivojlanishga avvalo motivni paydo qilib, undan keyin maqsadni to'g'ri qo'ya olishga, loyihalashga, rivojlanish

nuqtalarini oldindan ko‘rishga o‘rgatish lozim. Tadqiqotimizda keltirilgan olimlarning ilmiy qarash va g‘oyalari pedagoglarda UKRga motivatsion tayyorlik bevosita shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlari, shaxsiy istak va xohishlari negizida paydo bo‘ladi, degan xulosani tasdiqladi. Shuningdek, ularda shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga harakat qilish va mas’uliyatni o‘z qo‘liga olish malakasini ham tarbiyalab borish zarur. UKRga motivatsion tayyorlik turli motivlar negizida shakllanadi. Fikrimizcha, kasbiy sohaga, o‘z-o‘zini o‘qitishga oid motivlar sirasiga OTMdan boshlab xalq talimi bo‘yicha bilim olishga intilish, so‘ngra pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatga erishish yo’llarini puxta egallah, pedagogik mahorat va etikaga ega bo‘lish kiradi. Mazkur komponentlar motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishni tashkil etishning asosi hisoblanadi. Yuqoridaagi keltirilgan qarashlarning barchasi o‘qituvchilarning o‘z kasbiga qiziqishi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishishda yutuqlarni egallah va kasbiy faoliyatida ijod qilishga intilishni ta’minlaydi. Bu esa UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish komponentlariga bog‘liq. Tadqiqot davomida ushbu komponentlarni tizimlashtirdik (2.3-jadval).

2.3-jadval

UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish komponentlari

UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish komponentlari	
Tashkiliy-didaktik	Kasbiy qadriyatni aks ettiruvchi
“Men” konsepsiysi	Psixofiziologik xususiyat
UKRda o‘quv faoliyati	Kasbini sevish, kasbida o‘zini topish
Raqobatli kasbiy faoliyat muhiti (ijobiy ma’nodagi)	Uzluksiz kasbiy rivojlanishga ehtiyoji
Kognitiv-kompetentli munosabat	Bilish, o‘zlashtirish, amalda qo‘llay olish jarayoni
Psixoemotsional tayyorgarlik, hissiy barqarorlik.	Kuchli istak va xohish
Pedagogik mahorat va kasbiy kompetentlilikka ega bo‘lish	

Motivatsiya komponentlari UKRga tayyorlik jarayoniga internal (ichki) va eksternal (tashqi) motivlar ta'siri hamda o'qituvchilarni kasbni puxta egallashlari uchun harakat qilishlari, ijodiy o'zini namoyon etishi, samarali natijaga erishishlari bilan xarakterlanadi. Bu esa ularni kasbiy faoliyatida o'z o'rniغا ega bo'lish va o'zini o'qituvchilik kasbiga bag'ishlashga undovchi shaxsiy motivlarni harakatlantiradi. O'qituvchilar jamoada va jamiyatda o'z mavqeyini egallash, tashkilotchilik hamda rahbarlik qilish qobiliyati, shaxsiy xatti-harakatlarini namoyon etishga urinadilar. Shuningdek, tanlagan kasbiga mehr berish, unda kelajagini ko'ra olishi, faoliyatiga qiziqishi ortadi, intellektual jihatdan dunyoqarashi kengayadi, ijodiy faoliyat yuritishga harakat qiladi. Shaxsiy motivlar o'quv faoliyati mazmuni bilan bevosita bog'liq bo'lib, faol o'qish, o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltiradi. UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish komponentlarini o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishini tashkil etishga yo'naltirilgan barcha motivlarning jamlanmasi, deb atash mumkin. Ularning barchasi o'zaro bog'liq bo'lib, pedagogik faoliyat o'qituvchilarning yuqori natijalarga erishishlarini kafolatlaydi.

Komponentlar o'qituvchilarning motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning quyidagi pedagogik shart-sharoitlari yaratilishini talab qiladi:

1. UKR makonini yaratish: an'anaviy hamda noan'anaviy ta'lim shakllari, davlat va xususiy sherikchilikni rivojlantirish, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi, shuningdek, qo'shimcha qisqa muddatli an'anaviy va onlayn kurslar uzluksiz kasbiy rivojlanish makoni bo'lib xizmat qiladi.

2. O'qituvchi uchun individual psixologik-pedagogik yordam tizimini tashkil etish: ushbu tizim o'qituvchining malaka oshirishdan keyingi faoliyatini doimiy o'rganishga, ustoz-shogirdlik asosida ilmiy-metodik kuzatuvni amalga oshirishga, jumladan, individual ta'lim va kasbiy trayektoriyasini tuzishda amaliy yordam berish, psixologik suhbatlar, kuzatuvlarni amalga oshirish, pedagogik

mahorati bilan bog'liq ehtiyojlari ustida ishlash va eng asosiysi, bunday ko'mak zaruriyatini o'qituvchi o'zi tushunib yetishi hamda talpinishi lozimligini nazarda tutadi.

3. Variativ dasturlar asosida malaka oshirish: tabaqalashgan malaka oshirish tizimiga o'tish, o'qituvchi ehtiyojlari asosida o'quv dasturlarini yaratish, bir paytning o'zida bir necha xil mazmun va o'quv-metodik yordamni ko'zda tutuvchi dasturlarni taklif qila olish hamda malaka oshirishda tizimli islohotlarni davom ettirishni talab qiladi.

4. Pedagogika markazlari bilan maqsadli hamkorlik qilish: amaliyotchi-o'qituvchi, metodist, pedagogika markazi (Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari ko'zda tutilmoqda) professor-o'qituvchilarini algoritmiga ega bo'lgan o'qituvchini uzlusiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli (o'quv-seminar, seminar-treninglar, davra suhbatlari) hamkorlik.

Tadqiqot davrida o'qituvchining uzlusiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning to'rtta bosqichi amalga oshirildi (2.4-jadval).

2.4-jadval

O'qituvchini UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish bosqichlari

Bosqich	Belgilangan vazifa	Amalga oshirilgan ishlar
1-bosqich	mavjud shaxsiy tajribani tahlil qilish, ehtiyojlarni aniqlash	so'rovnama asosida, davra suhbatlari va malaka oshirish kurslarida o'qituvchilarini mavjud shaxsiy tajribalari tahlil qilindi, ehtiyojlari aniqlandi, shu asosda ularning imidjlari, harakat yo'nalishlari (xalq ta'limgoh sohasini mukammal bilish, o'z ustida ishlash, xorijiy tajribalarini o'rganish, multimedia vositalaridan foydalana olish v.h.) ishlab chiqildi
2-bosqich	tarbiyaviy jihat, ma'naviy tarbiyalash, izlanuvchanlikka o'rgatish	malaka oshirish va qisqa muddatli o'quv kurslari davomida kasbiy faoliyatida tarbiyaviy omillarga e'tibor qaratishi, insonparvarlik, o'quvchilarini ma'naviy tarbiyalashga diqqat qilishi, tolerantlik sifatlarini o'zida aks ettirishi

		uning o'qituvchilik, ustozlik maqomini mustahkamlashi, ishga bo'lgan motivatsiyasini yanada oshirishiga xizmat qilishi haqida tushunchalar berildi, amaliy mashg'ulotlarda treninglar, enerjayzerlar o'tkazildi.
3-bosqich	UKRni va o'z faoliyatini samarali tashkil qilish	doimiy o'zini o'qitish, UKRga doir seminarlarda ishtirok etish, onlayn plafotmalar orqali o'qish jarayonida zaruriylarini, ehtiyojlarini ifodalaydiganini tanlash o'rgatildi; maktab faoliyatida qo'llagan metodlari natijadorligini oshirish va ijobjiy emosiyalarini his qilishi uchun o'quvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib o'qitishning shakl, usul hamda vositalarini qo'llash, mavzuga doir o'quvchi bilim darajasiga mos tabaqlashgan topshiriqlar yaratish tavsiya qilindi
4-bosqich	hamkorlik va amaliy xatti-harakat	motivatsion tayyorlik kompetentligini aniqlashga qaratilgan so'rovnoma natijalari asosida davra suhbatlari, malaka oshirish kurslari darslarida "Muvaffaqiyatga yo'naltirilgan motivatsion iboralar" treningi, "Motivatsiyani kuchaytirish terapiyasi", shuningdek, "Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga motivatsion tayyorlik" qisqa muddatli kurslari o'tkazildi

Yuqorida keltirilgan bosqichlardagi faoliyatni amalgalashda asosan, malaka oshirish kursi tinglovchilaridan foydalanildi. Olib borilgan ishlar tizimi o'z samaradorligini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, asosan iqtisodiy soha rivojida qo'llanilgan motivatsion nazariyalar o'qituvchilarning motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishda amaliyotda yo'nalish ko'rsatishi dalillandi;

- o'qituvchilarning UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning muktabda yaratilgan innovatsion va axborot muhiti (axborot olish va uzatish imkoniyatlari, ochiq darslar, tadbirlar, yangilikka chorlovchi seminar-treninglar);

- malaka oshirish kurslarini samarali va sifatli tashkil etish (erkinlik, mustaqillik, hamkorlik, ehtiyojlar asosida mashg'ulot o'tish);


- o'qituvchining individual va shaxsiy sifatlarini inobatga olish;
- hamkasblar va boshqa yaqinlarining munosabati UKR uchun moddiy-texnik bazasi ta'sirida shakllanishi kuzatildi va asoslandi.

2.3-§. O'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish va takomillashtirishga motivatsion tayyorlik eksperimenti

Respublikamizda davlat siyosatining ta'limga qaratilganligi, yangi chaqiriq va standartlar, jumladan, zamonaviy jadal taraqqiyotga erishish uchun amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar nuqtayi nazaridan pedagogik faoliyat murakkablashuvi paydo bo'ldi va natijada o'qituvchining ijtimoiy mas'uliyati hamda moslashuvchanligiga talab kuchaydi. Ta'lim muassasalarida o'qituvchi faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish zarurati bir qator sabablarga ko'ra yuzaga keladi, jumladan, ta'limni shaxsga yo'naltirish va insonparvarlashtirish; umumiyligi o'rta ta'lim uchun milliy o'quv dasturlarining joriy etilishi munosabati bilan o'quv jarayonini rejalashtirishga yondashuvlarning o'zgarishi; boshlang'ich va umumiyligi o'rta ta'lim uchun davlat ta'lim dasturlari mazmunini yangilash; ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini kuchaytirish; inklyuziv ta'limni joriy etish va, umuman, ta'lim sifatini oshirish. Shunga ko'ra, pedagog kadrlarning malakasiga qo'yiladigan talablar ham ortib bormoqda, umumta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda uzlucksiz malaka oshirish masalalari yangilanmoqda. Bunday holatda eng muhim omil o'qituvchining uzlucksiz kasbiy rivojlanish masalasi bo'lib qoladi.

Bugungi kunda ta'lim taraqqiyotiga erishish borasidagi eng keng tarqalgan nazariyalardan biri xalq ta'limi pedagog xodimlarini uzlucksiz kasbiy rivojlantirish bo'lib, uzlucksiz kasbiy rivojlanish (UKR) maktablarda ijobiy o'zgarishlarga olib keladi, degan tendensiyadir. UKR darajasiga erishgan o'qituvchilarining ta'kidlashicha, doimiy erishilgan tajriba o'qituvchilarining bilim,

ko'nikma, malakalari, kompetentligi va mahoratini yaxshilaydi, bu esa ularning sinfdagi amaliyotini ijobiy jadallashtiradi, bunday uzviylik o'z navbatida o'quvchilarning natijalarida ijobiy o'zgarishlarga olib keladi (2.3-rasm).



2.3-rasm. Uzluksiz kasbiy rivojlanishning o'zaro ta'siri modeli

Ta'lif rivojlanishi uchun pedagog xodimning yangicha fikrlashi va o'zgarishlarga moslashishi juda muhim. Bugungi kun tadqiqotlarida o'qituvchilarda o'zgarishlarni eng samarali tarzda keltirib chiqaradigan va o'quv mashg'ulotlari, o'quvchilar uchun natijalarni yaxshilaydigan kasbiy rivojlanish tajribasining xususiyatlari hamda mohiyatini aniqlashga qiziqish ortib bormoqda. Masalan, Dezimone (Desimone) [181-199-b.] kasbiy rivojlanishning ta'siri bo'yicha bir qator amaliy tadqiqotlar, korrelyasion, kvazi-eksperimental va eksperimental tadqiqotlarni olib bordi va kamida beshta xususiyat samarali kasbiy rivojlanishga olib kelishini aniqladi: kontent(mazmun)ga e'tibor, faol o'rganish, izchillik, davomiylilik va jamoaviy ishtirok.

O'rganishlarimizga ko'ra, bizningcha, o'qituvchini samarali kasbiy rivojlantirishga olib keluvchi omillarning barchasi uchun harakatlantiruvchi kuch – uning motivatsiyasi bo'lib, mavjud motiv kasbiga, bilishga va o'z-o'zini rivojlantirishga rag'batlantiradi. O'qituvchilarni uzluksiz kasbiy o'sishga bo'lgan motivatsiyasi ma'lum bir ta'lif tashkilotining ta'lif amaliyotiga innovatsiyalarni kiritish va umuman butun ta'lif tizimini modernizatsiya qilishning

zarur shartidir. Ko'pgina mahalliy va xorijiy olimlarning fikricha, aynan o'qituvchining to'g'ri rivojlanayotgan motivatsion sohasi muvaffaqiyatli va samarali kasbiy faoliyatning asosi, shu jumladan, shaxsning ehtiyojlari, munosabati va yo'nalishidir. Masalan, K.Y.Izard insonning birlamchi motivatsion tizimini tashkil etuvchi hissiyotlar inson xulq-atvorida, uning shaxsiy rivojlanishida va dunyo bilan munosabatlarida tashkilotchi omil bo'lib xizmat qilishini urg'ulaydi [87]. P.Taker va D.Stronglar esa o'qituvchi faoliyatining samarali bo'lish shartlarini hisobga olib, uning motivatsiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydilar [56].

Har bir sohada bo'lganidek, xalq ta'limi sohasida ham kadrlar malakasini oshirish va ba'zan ularni qayta tayyorlash davlatning ijtimoiy rivojlanishi, ilm-fan hamda texnik taraqqiyot darajasi, ishlab chiqarish va mehnat bozoridagi o'zgarishlarga muvofiq, shuningdek, pedagoglarning shaxsiy talab va ehtiyojlarini hisobga olib, kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini chuqurlashtirish, boyitish, kompetentligini rivojlantirish hamda kasbiy yo'naltirish maqsadida amalga oshiriladi. Ayniqsa, bugungi o'qituvchiga talab oshgan, maktablardagi ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy, texnik rivojlanishdan ortda qolayotgani borasidagi tahlillar bot-bot ko'zga tashlanib turgan bir davrda o'qituvchi uchun uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik suv va havodek zarur.

XTXUKR jarayonida o'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda kurs tinglovchilarining shaxsiy rivojlanish sifatlari va qiziqishlarini inobatga olish muhim sanaladi. O'qituvchilarda motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish orqali pedagogik faoliyatga raqobatbardoshligini ta'minlash ularda kasbiy kompetensiya, kasbiy ko'nikma va malakalarning oshirilishiga erishiladi. Malaka oshirish jarayoni maqsadining aniq va puxta belgilanishi, o'qituvchilarning ehtiyojlariga asoslanganligi uning muvaffaqiyatini ta'minlashga poydevor yaratadi. Bunda ularning psixologik-pedagogik xususiyatlari, ehtiyoj va qiziqishlari, kognitivligi, BKM,

kompetentligi, kasb mahorati, kreativligi, ijodiy layoqati kabi xususiyatlarni inobatga olish muhim. Pedagog xodimlarda ta’lim va bilimga bo’lgan ishtiyoqni kuchaytirish, mustaqil ishlashni, o’z kasbiga hurmat va iftixor, qadriyat yaratish, tolerantlik tuyg’usini shakllantirish motivatsion tayyorlikni rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Bunda shaxsdagi motivatsiya ko’rinishlari hamda o’z-o’zini rivojlantirishga individual yondashishi, shuningdek, o’z maqsadlarini, rejalarini jamiyat, tashkilot va jamoa rejalariga bog’lay olishi yanada zaruriy shartdir.

Shu o’rinda ta’kidlash mumkinki, D.MakKlelland motiv va motivatsiyani uchta ko’rinishda namoyon bo’lishini asoslaydi:

1. Motivning paydo bo’lish sabablari.
2. Individual ravishda kashf qilingan qarashlar.
3. Affektiv vaziyatlardagi turli xil o’zgarishlar [94].

O’qituvchining olib borayotgan faoliyati, kasbi va o’quvchilaridan kutilmalari unda motivlar paydo bo’lish sabablarini izohlasa, uning kasbiy rivojlanish maydonini individual trayektoriyasini yaratishga bo’lgan ishtiyoqi UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini belgilaydi hamda o’ziga xos qarashlarni vujudga keltiradi. UKRda birlamchi sifat har bir o’qituvchining o’ziga xos individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasining mavjudligidir.

Shu o’rinda individuallik, individuallashtirish, trayektoriya tushunchalariga izoh berib o’tsak. Chunki, malaka oshirish jarayonini individuallashtirish, mavjud trayektoriya asosida harakatga yo’naltirish muammolari o’qituvchilarni uzlusiz kasbiy rivojlantirish bilan shug’ullanuvchi ta’lim muassasalari uchun dolzarb. Ya’ni, tinglovchilar jarayonda nafaqat katta hajmdagi yangi o’quv materiali, axborotlarni o’zlashtirishlari, balki avvalgi bilim, ko’nikma, malakalarini joriy va istiqbol holatlarga rostlash, faoliyatlarini refleksiv tahlillash, kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari, vazifalarining maqbul yechimlarini topishlari zarur bo’ladi. Bunday holatda individuallik o’qituvchida motivatsiyani kuchaytirishga yordam beradi.

Individuallik nazariyasi asoschilaridan biri V.D.Shadrikov uni yoritar ekan, har bir inson shaxs sifatida alohida shakllanganligini va individualligini e'tirof etadi [117]. Ta'kidlanishicha, insonning individualligi tug'ma (tabiiy) hamda hayot davomida orttirilgan xislat va fazilatlarining qorishmasidir; u xulqining turg'un shakllari, aqliy ko'rsatkichlari, qiziqishlari, maqsadlari, xatti-harakatlari va boshqalarda aks etadi; ichki olamining mohiyati qalbi bilan aniqlanadi hamda munosabati orqali namoyon bo'lishida ko'rindi.

- Individuallashtirish deganda, har bir ta'lim oluvchining individual-psixologik xususiyatlari hisobga olinadigan, ularning o'quv-biluv faoliyatini boshqarish tizimi tushuniladi. Individuallashtirilgan o'qitish esa o'quv jarayonini tashkillashtirishda individual yondashish asosida tanlangan o'qitish yo'llari va turli o'quv-uslubiy, psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta'minlanishidir [103; 83-84-b].

Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash borasidagi g'oyalari va shunga doir amaliy ishlar A.A.Ibragimovning tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan bo'lib, bunda xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish tizimini ko'p vektorli yondashuv asosida takomillashtirishda trayektoriya asosiy unsur ekanligini anglash mumkin. Olimning ta'kidlashicha, "...pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini tuzish undan kasbiy ehtiyojlari miqdorini anglash, baholay olish, loyihalash va rivojlanish nuqtalarini oldindan ko'ra olish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishini talab qiladi. ...Kasbiy rivojlanish individual ta'lim trayektoriyasi pedagogga o'z kompetentliligini takomillashtirishga faol intilish, tezkor refleksiv rostlash, ilmiy-metodik kuzatuv asosida kasbiy, shaxsiy individualligini ko'rsatish va isbotlash, qadriyatli-anglangan dunyoqarashi, e'tiqodini yuksaltirish, ilg'or tajribalarini namoyon qilish, ommalashtirish hamda alohida o'ziga xos bo'lgan professionalizmini o'stirishga sharoit yaratadi" [86; 114-, 118-b.]. Demak, o'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuza olishi va uni amalga oshirishdagi faoliyati uning UKRga

motivatsion tayyorlik kompetentligining qay darajada rivojlanganligi bilan bog'liq.

Motivatsion tayyorlik – pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy kunikma va malakalarni egallahshni, kompetentlikni rivojlantirishni, amaliy faoliyat qirralarini nazariy bilimlar bilan to'ldirib borishni, bilish, loyihalash, kommunikativlik, kreativlik, texnologik, ekstrimallik va tashkilotchilik mahoratini takomillashtirib borish demakdir.

O'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini (keyingi o'rirlarda - O'IKRT) tuzish va uni amalga oshirishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish bir necha bosqichda amalga oshirilib, uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi:

1-bosqich: O'IKRT hamda UKRga psixologik jixatdan tayyorgarlik bosqichi. Buning uchun o'qituvchi didaktikaning quyidagi prinsiplariga amal qilishi kerak:

Mutanosiblik prinsipi – o'z kasbiy faoliyatini o'zgartirish, yangilik kiritishga bo'lgan ehtiyoj bilan qadriyat, psixologik-pedagogik, metodik kompetensiyalarni egallah ehtiyoji o'rtasidagi mutanosiblik. Shuningdek, belgilangan maqsadlar va unga doir bajarilishi lozim bo'lgan xatti-harakatlardagi mutanosiblik.

Ijodkorlik prinsipi – pedagogik jarayonda obyekt bilan subyektning birgalikdagi ijodkorligi.

Kasbiy faoliyatdagi onglilik va faollik prinsipi – bilish jarayonlari: fikrlash, anglash, tushunish, diqqat, xotira tafakkurni faollashtirish orqali o'z ustida ishlash.

Vaziyatdan chiqa olish prinsipi – yangi, to'satdan yuz beradigan, shu davrgacha ma'lum bo'limgan vaziyatlardan chiqib ketish.

2-bosqich: Amalga oshirilayotgan faoliyat mazmun-mohiyatini ifodalovchi qadriyatli, psixologik-pedagogik bilimlarni va pedagogik mahoratni rivojlantirish bosqichi. Bunda:

- kasb standartlariga oid talablarni bajarish;
- qadriyatlarni anglash, o‘z-o‘zini motivlashtirish, shaxsiy-kasbiy sifatlar, qobiliyatlarini tashxislash.
- ijodiy faoliyat texnologiyasini o‘zlashtirish;
- mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi vaziyatlarga ko‘chira olish, moslashish;
- asosiy yoki bosh muammolarni ajrata olish;
- o‘z rivojlanish nuqtalarini, shuningdek, obyektning yangi funksiyalarini ko‘ra bilish;
- maqbul yechimlarni topa olish;
- o‘z-o‘zini va o‘z faoliyatini tasniflay olish, refleksiv baholash, yangi maqsad hamda vazifalarni belgilash kunikma va malakalari shakllantiriladi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari, o‘qituvchilarda UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish jarayonida malaka oshirish kurslarining pedagogika va psixologiyaga tegishli modullariga ushbu tadqiqot mohiyati singdirilishi bilan birga, qisqa muddatli kurs, turli seminar-treninglar, davra suhbatlari kabi shakllarda tashkil etildi va bularning barchasi tadqiqotimizning umumiy g‘oyasini ifodalab, rejorashtirgan maqsadimizga yo‘naltirildi. Jumladan, davra suhbatlarining mazmuni pedagog xodimlarda kasbga bo‘lgan motivatsiyani aniqlash va rivojlantirishga qaratildi:

1. Kirish qismda, nega aynan shu kasbni tanlagani va hayotini shu kasbga bag‘ishlayotgani, kasbi doirasidagi ega bo‘ladigan darajalari, o‘sish nuqtalari haqida ma’lumotga egaligi so‘raldi, faoliyati natijalari, shu kasbda o‘z imkoniyatlaridan qay darajada foydalanayotganini, o‘zini bag‘ishlayotganiga doir savollar bilan murojaat qilindi hamda javoblari tahlil qilindi.

2. Asosiy qismda, nima uchun ta’lim olishni, o‘z tajribalarini oshirishni davom ettirishni xohlayotganliklari va shaxsiy rivojlanishni rejorashtirish zaruriyati aniqlashtirildi.

3. Mustahkamlash va xulosaviy qismda, o'qituvchida kasbiy motivatsiyaning mavjudligi, kommunikativ ko'nikma, malaka, hissiy barqarorlik va sezgirlik kabi xususiyatlar tekshirildi. Har bir o'qituvchi uchun ularning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish hamda istiqbol rejalarini aniq ifodalash talab qilindi. Ushbu talabni amalga oshirishlarida yo'naliш berish maqsadida quyidagi individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzishga doir chora-tadbirlar jadvali namuna sifatida berildi (2.5-jadval).

2.5-jadval.

O'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzishga doir chora-tadbirlar jadvali

Nº	Amalga oshiriladigan faoliyat mexanizmi	Amalga oshirish shakli
1	Zamonaviy-raqobatbardosh o'qituvchi imidi va maqomiga ega bo'lish	O'zlashtirilgan BKMni uzlusiz amalda qo'llash, qo'shimcha ma'lumotlar olish, o'z qadriyatini yaratish
2	O'z ustida ishslash	Ta'limni o'ziga qaratish, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish, uztozlar faoliyatini o'rganish
3	Pedagogik faoliyatida duch kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlar, to'siqlar va ularni bartaraf etish usullari	Qisqa muddatli kurslar, master klass, o'quv seminari, treninglar, davra suhbatlarida ishtirot etish
4	Ota-onalar bilan ishslashni takomillashtirish	Maslahat va ular bilan turli tadbirlar uyushtirish
5	Maktab bilan hamkorlikda ishslash	Ochiq darslar o'tkazish, o'z tajribalarini ommalashtirish, uslubiy birlashmalarda ishslash, suhbatlar olib borish
6	Axborot kommunikasion texnologiyalardan samarali foydalanish	Infografik taqdimotlar, medieresurslar yaratish
7	Xorijiy ilg'or tajribalarni o'zlashtirish	Respublika va xalqaro konferensiyalarda, forumlarda ishtirot etish
8	O'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish	Ijtimoiy institutlar, hududiy oilaviy poliklinika shifokorlari va b. bilan hamkorlikda ishslash.

Natijada o'qituvchilarda kasbiga nisbatan anglashlik, faoliyatga nisbatan tahlil va tavsif, o'z-o'zini o'qitish va rivojlantirishga

motivatsion tayyorlik kompetentligining ma'lum darajada o'sganligi kuzatildi. Bundan tashqari, tajriba-sinov davrida kasbiy motivatsiyaning kuchayishi tanlagan kasbiga ijobiy munosabatni yuzaga keltirishi asoslandi. Ularda o'quv faoliyatida mustaqil izlanish va topshiriqlarni ijodiy amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qilindi.

Tahlillarga ko'ra, malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarda ijodiy mustaqillikni rivojlantirish va eng muhimi pedagogik faoliyatni loyihalashga o'rgatish lozim. Bunda o'qituvchiga ijodkorlikning ahamiyati va qimmatini tushuntirish, o'quv mashg'ulotlarini asosan amaliy topshiriq va treninglar asosiga qurish, ijodiy mustaqillikni rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, kasbiy tayyorgarlik jarayonida ijobiy hissiy kayfiyat, ma'naviy sog'lom muhit, kasbiy imkoniyatlar va ichki motivatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash kerak.

Malaka oshirish kurslari davomidagi kuzatishlar pedagog xodimlarning barchasi ham mustaqil ravishda kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilash, faoliyatlarini qayta qurish, o'zaro ta'sir va kommunikativ munosabatlarga tez kirishish layoqatlariga yetarlicha ega emasliklari, motivatsiyaning pastligi hamda ko'p ikkilishlar mavjudligini ko'rsatdi. Ular zaruriy adabiyotlar, malaka oshirish shakllarini tanlash, kasbiy ehtiyojlari va qiyinchiliklarini anglash, o'zlarini namoyon qilish, pedagogik g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish, qanday hollarda ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi qaysi subyektlarga murojaati mumkinligini aniqlashlarida amaliy yordamga muhtojlik sezadilar. Shu sababdan pedagoglarning kasbiy ehtiyojlarini qoplash, muayyan muammoli vaziyatlarda maqbul yechimlarni topishda ichki salohiyatidan foydalanish, o'z-o'zini motivlashtirish, o'z-o'zini rag'batlantirish, o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish, innovatsion jarayonlarga doir ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, tajribalarini yuzaga chiqarish, muxtasar aytganda, kasbiy

rivojlanishlarida ilmiy-metodik kuzatuvni tashkillashtirish uchun qulay sharoitlar yaratishga asosiy e'tiborni qaratish zarur. Ya'ni bir tarafdan pedagog doimiy o'sib borishi, o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lishi, ikkinchi tarafdan, jamiyat tomonidan uning doimiy o'qishi va rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratilishi lozim. Demak, o'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi (O'IKRT) pedagoglar uchun harakatlar algoritmini aniq rejalashtirishda qulay andaza vazifasini bajaradi.

Shu o'rinda ilmiy-metodik kuzatuv – pedagogning professional o'sishi va kompetentlilagini rivojlantirishda maqbul sharoitlar yaratish, ta'lim subyektlari hamkorligini uyushtirishda boshqaruva texnologiyasini butun, tizimli, tashkiliy faoliyat sifatida amalga oshirilish jarayoni ekanligini ta'kidlash lozim [86; 214-b.].

Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi XTXUKR muhitining chegaralari, imkoniyatlarini kengaytiradi, o'qituvchilarda o'zligini anglash, namoyon qilish, motivlarini mustahkamlash, motivatsion tayyorlik kompetentligini, shaxsiy-kasbiy sifatlarini uzluksiz rivojlantirishning qulay va samarali vositalarini ongli tanlash hamda amalga oshirishga sharoit yaratadi. Shuningdek, ularning individual imkoniyatlari, alohida o'ziga xosliklari, kasbiy qiziqishlari, qiyinchiliklari, ehtiyojlari, tajribasi, malaka darajasi, shaxsiy motivlari va ijtimoiy mavqeyini inobatga olishga xizmat qiladi.

O'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish undan ichki motivatsiya, o'zini motivlashtirish, hissiy barqarorlik, bilish jarayonlarini faollashtirish, kognitiv imkoniyatlarini anglash, kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari, maqsadlarini baholay olish, loyihalash va o'sish nuqtalarini oldindan mo'ljal olish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishini talab qiladi.

Keltirilgan fikr va dalillar asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimida motivatsion-kompetentli yondashuv, faoliyatdagi xatti-harakatlar uchun tayyorlik o'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini mustaqil tanloviga muvofiq

loyihalashini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi, degan xulosa chiqarish mumkin. Bu jarayonda o'qituvchiga UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning samarali modeli bo'ladigan O'IKRTni tuzishga yetaricha imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish asosiy omil bo'ladi. O'tkazilgan tadqiqotlar ishni bu shaklda tashkillashtirish o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanish samaradorligi va natijadorligiga bo'lgan mas'uliyatini belgilaydi hamda faoliyatining maqsad, vazifalarini ongli ravishda aniqlay olishi, yuritishi, individual-psixologik imkoniyatlari, refleksiv baholash ko'nikmalarining mukammallashishi, o'quv motivlari darajasining ko'tarilishi, motivatsion tayyorlik kompetentligining rivojlanishini ko'rsatadi.

II bob bo'yicha xulosalar

"O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari" deb nomlangan ushbu bobda ifodalangan fikr-mulohazalar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

UKRni ta'minlovchi jarayonlarning ketma-ketligi, uzluksizligi, o'z-o'zini o'qitishni tashkil etish hamda amalga oshirishga tayyorligini ifodalovchi o'qituvchida motivatsion tayyorlik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish bosqichlari modelini shakllantirish zarurati aniqlandi.

O'qituvchining motivatsion, qadriyatl, kognitiv, faollashtiruvchi, hissiy-irodaviy va refleksli kabi qismlarni o'z ichiga olgan kasbiy o'sishga motivatsion tayyorligi tarkibiy-funksional kompleksning uzluksiz rivojlanishi bilan ta'minlanadi.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish modelini yaratish hamda uning komponentlarini tavsiflash uchun asosli dalillarga ega bo'lish sharoitini taqdim qildi.

Dissertatsiyada ilgari surilayotgan g'oya, psixologik jihatdan o'rganilgan motivatsion tayyorlikni o'qituvchining uzluksiz kasbiy

rivojlanishidagi pedagogik asoslarini aniqlashtirish, ijtimoiy buyurtmaga nisbatan motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning shart-sharoitlari, metodlari, amaliy ishlanmalarini shakllantirish muhim.

**III BOB. O'QITUVCHILARNING UZLUKSIZ KASBIY
RIVOJLANISHGA MOTIVATSION TAYYORLIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI
SAMARADORLIGI**

**3.1-§. Tajriba-sinov ishlarining mazmuni, o'tkazish
shakl va metodlari**

O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorgarligini o'rganish ta'lif siyosatidagi tashabbuslar va o'qituvchilarning doimiy kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish motivatsiyasi darajasi o'rtasidagi qarama-qarshilikni hal qilish zarurati bilan belgilanadi. O'qituvchilarning uzluksiz malaka oshirishga tayyorligi masalasi, ayniqsa, ta'lif natijalari past bo'lgan maktablarda sust ekanligi ma'lum, o'quvchining natijasi har doim o'qituvchiga bog'liq. Ushbu maktablarning o'qituvchilari doimiy ravishda o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda turli vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish imkonini beradigan turli xil usullar, texnologiyalarni tanlab olishlari va amalga oshirishlari kerak, masalan, maktab kontingenti orasida og'ir ijtimoiy sharoitda bo'lgan o'quvchilarning mavjudligi, qiyin hayotiy vaziyatlar, o'zbek tilining ona tili emasligi va boshqalar.

Tadqiqot davomida xalq ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish muammolarini nazariy o'rganish, amaliyatdagi holatini aniqlash, loyihalangan modellarni ilmiy asoslash, shuningdek, ilgari surilgan qarashlarning eksperiment tarzida samaradorligini sinab ko'rish, natijadorligini tahlillash zarurati mavjud. Bunda tajriba-sinov ishlarining turli shakl va metodlarda o'tkazilishi dissertatsiyada ta'kidlangan ilmiy farazlar hamda qarashlarning qay darajada ishonchlilagini, faoliyatdagi sifat ko'rsatkichini aks ettiradi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'pgina savollarga javob bo'ladi. Shu yo'sinda tajriba-sinov ishlari olib borildi hamda uning maqsadi

sifatida o'qituvchining UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlanirishga doir tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni amalgaloshirish natijasida UKRning pedagog kasbiy faoliyatida tizimlashuvi, uni mustaqil amalgaloshirish, motivatsiyasining ortishi, munosabatning o'zgarishi, motivatsion kompetentlikning rivojlanishi, o'z-o'zini o'qitish, kreativ, innovatsion, psixologik, metodik, ijtimoiy kompetentlikning o'sishi, kasbiy sa'y-harakatlarining o'zgarishi, missiyasini tushunishi, o'quv maqsadlariga erishishda qo'llaniladigan vositalarga munosabati va refleksiv ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sirini kuzatish belgilandi.

Taqiqotimizda tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlangan ta'limga tashkilotlari bilan samarali ishlashni tashkil etish, o'qituvchilarining uzlucksiz kasbiy ta'limga tayyorligi, o'z-o'zini rivojlanirishga motivlari, faoliyatga kirishish darjasini, munosabatini aniqlash va natijaga muvofiq tegishli chora-tadbirlarni amalgaloshirish uchun hududiy markazlarda malaka oshirishga jalb etilgan pedagog xodimlarning uzlucksiz kasbiy rivojlanishga ta'sir etuvchi motivatsiyasi o'rganildi.

Tadqiqotning maqsadi – o'qituvchilarining uzlucksiz kasbiy rivojlanishga munosabatini, motivatsion tayyorlik kompetentligi darajasini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari o'qituvchilarining uzlucksiz kasbiy rivojlanishi uchun o'z-o'zini tarbiyalash va malaka oshirishga tayyorlik darajasini, kasbiy rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi va undovchi omillarni, ruhiyatni, jarayondagi his-tuyg'ularni, motivatsion kompetentlikni rag'batlantirish vositalari hamda usullarini aniqlashdan, zaruriy tavsiyalarni berishdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asoslarini tarkibiy qismlarni shakllantirish, mezonlar va baholash tushunchalari tashkil etdi.


Tadqiqot metodi – uzlucksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorligini va munosabatini aniqlashga qaratilgan so'rovnama.

O‘rganiluvchi faoliyatning tarkibiy qismlari – ruhiy holat, ta’sir ko‘rsatuvchi va tartibga soluvchi tashqi sabablar, o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida jamoaga tayanish, ijtimoiylashuv, ta’lim olish, kreativlik, ijodiylik va o‘zini takomillashtirish komponentlari doirasida belgilangan subyektning yetakchi faoliyat turlaridan kelib chiqqan ichki munosabat tuzilmalari.

Mazkur so‘rovnoma mazmunini o‘qituvchi kasbiy faoliyatida xatti-harakatlarining, kirishuvchanligining, ijobiy samaradorligining asosi bo‘lgan uzluksiz kasbiy rivojlanishiga nisbatan motivatsion tayyorligini aks ettiruvchi kasbiy ehtiyojning, internal va eksternal motivatsiyaning mavjudligi, kuchli istak va xohish, doimiy o‘qish, o‘zlashtirish, amalda qo’llay olish jarayoni, qiziqish va intilishlar, kasbida o‘zini topish, zamonaviy talablarga tayyorlik, shuning bilan birgalikda, hissiy barqarorlik, shaxsiy-kasbiy yo‘nalganlik ko‘rsatkichlari va samaradorlik, kreativ-refleksiv faoliyat natijalari tashkil etadi. O‘qituvchilar tomonidan tanlangan variantlarni turli jihatdan tahlillash bugungi tez o‘zgaruvchan, global o‘sishni talab qilayotgan ta’limda o‘qituvchining hissasi va natijadorligini belgilab olish hamda ularga metodik xizmat ko‘rsatishning takomillashgan turlarini aniqlashtirish imkonini beradi.

Avvalo, so‘rovnoma ishtirokchilari (620 nafar) tanlagan javoblarining umumiy o‘rtacha qiymati aniqlashtirib olindi: bunda o‘qituvchilarning 50 %ida o‘z motivatsiyasiga nisbatan hissiy barqaror ekanligi, kasbiy mahoratini oshirish jarayonida ijobiylikni his etishi, UKR uchun har qanday imkoniyatlardan foydalanishi, o‘z rivojlanish nuqtalarini va kutilmalarini UKR bilan bog’lashi, jamoaviy ishlashga, psixologik-pedagogik, kommunikaiv yondashishga, hamkasblaridan tajriba o‘rganish va almashishga, ta’lim olish, kurslarda, davra suhbatlari, ilmiy-amaliy konferensiyalarda doimiy qatnashishga tayyorligi, ijodiy faoliyat, eski bilimlarini yangilari bilan sintez qilish, o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilish mavjudligi va, umuman, “har doim” motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishga ehtiyojning

kuchliligi aniqlangan bo'lsa; keyingi o'rirlarda yuqoridagi kabilarni "ko'pincha" 22 % va "ba'zan" 22 % boshdan kechiruvchilar tashkil etgan; faoliyatiga nisbatan anchagina befarq, ma'lum bir qolipda fikrlaydigan, UKRni faoliyati uchun ortiqcha, deb hisoblaydigan, aniqroq ta'kidlaganda, kasbiy rivojlanish o'zining va o'quvchining natijasiga ta'sir ko'rsatishini, bunga javobgarlik hamda mas'uliyat o'zida ekanligini tan olishni xohlamagan respondentlar 6 % ni tashkil etdi (3.1-rasm).




3.1-rasm. O'qituvchilarda motivatsion tayyorlikni aniqlashga doir so'rovnomanning umumiyligi o'ratacha qiymati

O'qituvchilarning UKRga munosabati hamda motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishga intilishi so'rovnomada tarkibiy qismi va unda belgilangan javoblar nisbatida tahlil qilindi.

1-tarkibiy qism. "Ruhiy holat" turkumi bo'yicha quyidagi foiz ko'rsatkichlari aniqlandi:


- kasbiy mahoratini oshirishga intiluvchi va bu jarayonda doimiy ravishda ijobiy his-tuyg'ularni boshdan kechiruvchi (ya'ni

uzluksiz kasbiy rivojlanishga ichki motivatsiyasi hissiy barqaror) respondentlar 53%ni, vaqtiga bilan UKRda tanaffus bo'lishiga qo'shiluvchi, lekin ko'pincha ijobiylikni his qiluvchilar 27%ni, UKRga anchagina befarq, biroq ba'zan jarayonga intiluvchilar 18%ni, tasodifiy ravishda kasbiy mahoratni oshirishni istamaydigan, bunday tuyg'ular yot bo'lgan 2% o'qituvchilar mavjudligi aniqlandi va befarqlik hamda o'z-o'zini rivojlantirishni istamaslik ta'lim taraqqiyoti uchun to'siq paydo bo'lishiga olib keladi, deb xulosa qilish mumkin (3.2-rasm);




3.2-rasm. O'qituvchining UKRga ichki motivatsiyasi

- uzluksiz kasbiy rivojlanish, malaka oshirish kurslarida o'qishga tayyor, yangi BKMga erishishda mavjud imkoniyatlarning barchasidan foydalanishni xohlovchilar 60%, tez-tez shunday xattiharakatlarni bajaruvchilar 22%, o'quvchilar muvaffaqiyatida samaradorlikka erishish uchun UKRga ba'zan murojaat qiluvchilar 17%, jumladan, o'zini o'qitish uchun hech qachon imkoniyatlardan foydalanmaydigan o'qituvchilar ham bor va ular 1%ni tashkil qiladi (3.3-rasm);



3.3-rasm. O'qituvchining UKRga tayyorligi va motivatsiyasi

- turkumda berilgan navbatdagi variant o'qituvchi motivatsiyasini tushiruvchi, kasbiy mahoratini oshirishga to'siq bo'lishi mumkin, deb qaraluvchi mazmunni ifodalaydi, ya'ni o'qituvchining UKR kurslarida qatnashishi dars soatlarining qolib ketishiga ta'sir qilganligi sababli o'z-o'zini o'qitishdan to'xtashi mumkinligi borasidagi farazlar ham mavjud. Bunda ijobiy javoblar teskarisiga nisbatan belgilanadi, bunda 18 % o'qituvchi hech qachon to'siq bo'lolmasligini, 51 % respondent ba'zan salbiy ta'sir qilishi mumkinligini, 19 % respondent ko'pincha, 12 % esa har doim salbiy ta'sir ko'rsatayotgini ifodalagan va bunday ruhiy holatni o'qituvchi mas'uliyatiga ko'proq bog'ladik.




3.4-rasm. O'qituvchining UKR va o'z dars soatlariga munosabati

Chunki kasbi va o'quv faniga nisbatan mas'ul bo'lgan pedagog o'quv mashg'ulotlariga yangi mazmun kiritish uchun o'zini rivojlantirish uchun bor resurslardan, imkoniyatlardan, albatta, foydalanishga harakat qiladi (3.4-rasm).


2-tarkibiy qism. “Tashqi sabablar” turkumi bo'yicha o'qituvchining UKRga motivatsion tayyorik kompetentligini rivojlantirishda u ishlayotgan ta'lim tashkilotining ham munosabati muhim ekanligi belgilandi, bunga ko'ra:

- malaka oshirish kurslarini tugatganlaridan so'ng, ish haqi oshishi yoki rag'batlantirilishim doimiy ravishda yo'lga qo'yilishi kerak, deb hisoblovchi respondentlar 28%ni, ko'pincha, bu rag'bat tez-tez bo'lishi zarurligini ta'kidlovchilar 17%, muhim emas, ba'zan e'tibor qaratishni tanlaganlar 26%ni, bunday tashqi vaziyatlar hech qachon shart emas, deyuvchilar 29%ni tashkil qildi (3.5-rasm);




3.5-rasm. UKR davomida o'qituvchining rahbariyatdan kutuvlari

- malaka oshirish kurslari davomida tinglovchilarning UKRga munosabatini aniqroq tushunish uchun kasbiy mahoratning oshib borishi, faoliyatidagi yutuqlari mansab pog'onasiga ko'tarilishiga yordam berishi mumkinligi borasidagi qarashlari ham o'r ganildi va oqibatda doimiy ko'mak berishini ta'kidlovchilar fikri 41%ni, ko'pincha 24%, ba'zan ta'sir ko'rsatishi mumkinligi 23%, umuman aloqasi yo'q, deb o'ylovchilar 12 %ni tashkil etishi aniqlandi (3.6-rasm);



3.6-rasm. O'qituvchi tasavvurida UKR va lavozim aloqadorligi


- keyingi mezonda o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishiga, shuningdek, unda doimiy izlanishga, motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishga kuchli tashqi ta'sirga ega bo'lgan, eksternal motivatsiyani yuzaga keltiruvchi omil UKRga mustaqil ravishda doimiy intilayotgan o'qituvchilarga nisbatan o'zi faoliyat yuritayotgan maktab ma'muriyatining munosabati o'rganildi. Natijada, 32 % respondent UKR maktab ma'muriyati tomonidan hech qachon rag'batlantirilmaganini, 33%i ba'zan imtiyozlar berilganini, 14% tez-tez va 21% o'qituvchilar rahbariyat tomonidan har doim turli imtiyozlar bilan rag'batlantirilgani ma'lum bo'ldi. Shu o'rinda aytish joizki, avvalgi bobda tashkilotlarning UKRga moddiy va ma'naviy alohida tizimli munosabatning shakllantirilishi uning ijobiy oqibatlarini tezda yuzaga chiqaruvchi bosqich ekanligi A.Maslou iyerarxiyasida ham amaliyotda keyingi qadamning tashkil etuvchisi sifatida ta'kidlangan edi (3.7-rasm).



3.7-rasm. Maktab ma'muriyatining UKRga munosabati


3-tarkibiy qism – “Ijtimoiylashuv” nomli turkumni o'z ichiga olgan bo'lib, o'qituvchining jamoaga, jamoaviy o'sishga, birgalikda interaktiv xatti-harakatlarni amalga oshirishga munosabati o'rganildi:

- avvalo, o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanish, ustoz-shogird tizimidagi metodik yordamning tashkil etilishi, olinadigan darslar, yangi bilim, ko'nikma va malakalar individual egallash lozimligi borasidagi fikri tahlillandi va bunda uzluksiz kasbiy rivojlanish hamda metodik yordam olish har doim individual bo'lishini xohlovchilar 23%ni, ko'pincha – 20%, ba'zan – 51%, UKR hech qachon individual bo'lishi kerak emas, deb hisoblovchilar 6%ni tashkil etdi (3.8-rasm);




3.8-rasm. O'qituvchining individual metodik yordam olishga munosabati

- hamkasblariga ijobiy munosabatda bo'lish, ularning ilg'or tajribalarini o'rGANISH, kreativ yondashuv asosida o'z amaliyotida qo'llash doimiy muvaffaqiyatga, ijtimoiylashuvga olib kelishini tushungan va bunga har doim ergashuvchilar 66%, ushbu yondashuvni ko'pincha, deb qabul qiluvchilar 24%, ba'zan hamkorlikka ehtiyoj sezuvchilar 10% ekanligi ma'lum bo'ldi (3.9-rasm);



3.9-rasm. UKR va o'qituvchining hamkasbiga ijobiy munosabati

- UKRning (onlayn, onlayn platforma v.b.) boshqa shakllaridan ko'ra, o'qituvchilar guruhida interaktiv o'qish kasbiy mahoratning oshishida samarali ekanligini 47% respondent har doim, deb ko'rsatgan bo'lsa, 33%i ko'pincha, 18%i ba'zan natijador bo'lishi mukin, 2%igina guruhda hamkorlik metodlarida o'qish hech qachon kerak emas, deb hisoblagan, ushbu ko'rsatkichda malaka oshirish kurslari o'quv jarayonini tashkil etishda amaliy mashg'ulotlarga ko'proq urg'u berish zaruriyati ham kuzatilgan (3.10-rasm).



3.10-rasm. UKRda o'qituvchining hamkorlik metodlariga munosabati


4-tarkibiy qism – o'qituvchilarning o'z-o'zini mustaqil o'qitishga nisbatan motivatsiyasini o'rghanishga qaratilgan bo'lib, "Hayot davomida ta'lif olish va ulashish" deb nomlanadi, bunda:

- andragogik ta'limda ham o'qib-o'rghanishga ichki motivatsiyani rivojlantirish, orttirgan amaliy tajribalari asosida o'zini mustaqil o'qitishga to'laqonli kirishish, doimiy tayyorlikni, kasbiy qiziqishlarini, intilishlarini ifodalovchi mazkur variantga 85% respondent har doim, 12%i ko'pincha va 3% o'qituvchi doimiy o'qib o'rghanishni yaxshi ko'rishini ba'zan javobi ostida qoldirgan (3.11-rasm);




3.11-rasm. O'qituvchining UKRga munosabati

- nafaqat o'qib-o'rganish, balki o'z tajribalarini ommalashtirish, metodik tavsiyalar, maqola va tezislar yaratish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish ham o'qituvchidan doimiy uzlusiz kasbiy rivojlanishni va unga motivatsion tayyorlikni talab qiladi, shu nuqtayi nazardan o'qituvchining o'z uslubiy materiallarini nashr ettirishga munosabati va harakatlari o'rganilganda, amaliyot ancha past natijada ekanligi aniqlandi: har doim – 15%, ko'pincha – 14%, ba'zan – 59%, hech qachon – 12 foiz (3.12-rasm);



3.12-rasm. O'qituvchining o'z tajribasini ommalashtirishga munosabati

- fanni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, infografik taqdimotlar tayyorlash, boshqalardan o'rganish, ilmiy-metodik manbalarni izlash, professional muloqot uyushtirish, turli konferensiya, seminar va davra suhbatlarida nafaqat ishtirok etish, balki ularning materiallaridan o'z ishlarida unumli foydalanish, yangi kreativ amaliy ishlanmalar yaratishda ham o'qituvchining UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini, uning munosabatini tahlillash muhim, aytib o'tilgan harakatlarga doir o'qituvchilarning munosabati va faoliyatini aniqlashga qaratilgan so'rovnomada qismida: har doim – 36%, ko'pincha – 31%, ba'zan – 30, hech qachon – 3% qiymatli ko'rinishga ega bo'ldi (3.13-rasm).




3.13-rasm. O'qituvchidagi kognativlik, mobillik va kasbiy manbalarga munosabat

5-tarkibiy qism – “Ijodiy faoliyat” turkumini o'z ichiga oladi va jarayonga nisbatan motivatsion tayyorlikni tahlillashga qaratilgan:


- o'qituvchining yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishga va o'zlashtirishga bo'lgan intilishi, amaliyotda o'z darslarida sinab ko'rishni ustuvor vazifaga aylantirishi, o'zgarishlar kiritishi, qiziqishlari, motivlarini o'zida ifodalovchi ushbu mazmun –

har doim 75%, ko'pincha 19%, ba'zan 6%ni aks ettirgan (3.14-rasm);




3.14-rasm. O'qituvchining yangiliklarga motivatsion tayyorligi

- eski bilimlarini yangilariga sintezlash, ularni bir-biriga qiyoslash, taqqoslash orqali o'rganish, UKRga o'tish, o'z bilimlarini mustahkamlash, yangi pedagogik vazifalarni amalga oshirishda mavjud (fundamental) bilimlaridan kreativ foydalanish, davr talablariga moslashtirishga motivatsiyani aniqlashtiruvchi variantda – har doim 43%, ko'pincha 35%, ba'zan 20%, hech qachon 2% hisobli natijani ifodaladi (3.15-rasm);



3.15-rasm. O'qituvchining kognitiv jarayonlarga motivatsiyasi


- pedagogik-psixologik loyihalar, fanni o'qitish jarayonidagi innovatsiyalar, xorijiy tajribalarni o'rganishga, o'qituvchilar bilim, saviyasini oshirish, attestatsiya hamda faoliyatidagi qo'shimcha tashabbuslar (masalan, mobil-metodik guruhlarda ishlash kabi), o'z g'oyalarini tatbiq qilishga doir motivatsion tayyorlik kompetentligini ifodalovchi ushbu so'rovga tanlovlari – har doim 55%, ko'pincha 26%, ba'zan 17%, hech qachon 2%ni tashkil etdi (3.16-rasm).



3.16-rasm. O'qituvchining tashkiliy-metodik loyihalarga munosabati


6-tarkibiy qism – “O'z-o'zini takomillashtirish” turkumidan iborat bo'lib, pedagoglarning UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini va kasbiy mahoratini takomillashtirib borishni nazarda tutadi:

- malaka oshirish kurslarida qatnashish, olgan bilim va ko'nikmalarini maktab amaliyotida qo'llashga doir munosabatini aniqlashtirishga mo'ljallangan so'rvnomada ushbu faoliyatni har doim amalga oshiruvchi respondentlar 78%, ko'pincha javobini tanlaganlar 17%, ba'zan murojaat qiluvchilar 5% ekanligi oydinlashdi. Bunday ko'rsatkich o'qituvchilarning UKR kurslariga ijobjiy munosabatdaligini ifodalaydi (3.17-rasm);



3.17-rasm. O'qituvchining UKR kurslariga munosabati


- uzluksiz kasbiy rivojlanishning turli shakllari tafsiq qilinayotgan bir paytda o'qituvchilarning Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarida an'anaviy (offlайн) kurslarga qatnashishlarini ifodalovchi ushbu qism quyidagicha foizlarga ega bo'ldi: har doim kurslarda qatnashishni yoqlovchilar 76%, ko'pincha qatnashish kerak, deb hisoblovchilar 18%, ba'zan offlайн va ba'zan boshqa shakllardan foydalanishni ko'rsatuvchilar 5%, shuningdek, UKRga salbiy munosabatni ifodalovchi pedagoglar ham mavjud bo'lib, ular qisman 1%ga to'g'ri keladi (3.18-rasm);



3.18-rasm. O'qituvchining an'anaviy UKR kurslariga munosabati

- o'z tajribasi bilan o'rtoqlashish, metodik yordam ko'rsatishga motivatsion tayyorlikning aks etishi har doim ekanligini ta'kidlovchi respondentlar 70%ni, doimiy bo'lmasa-da, ko'pincha bu jarayonga

kirishuvchilar 22%, ba'zan varianti esa 8%ni tashkil etdi (3.19-rasm).



3.19-rasm. O'qituvchining metodik yordam ko'rsatishga munosabati

O'r ganilgan tahlil natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligining mavjud holati o'rtacha miqdorda ijobiy tavsifni ifodalasa ham, yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar o'qituvchida tabiiy ichki motivatsiyani shakllantirish, uning o'z-o'zini o'qitish kompetentligini rivojlantirishda motivatsion treninglar, davra suhbatlari va turli xil usullarning amaliyotga tizimli, uzviy kirib kelishini ta'minlash muhimligini ko'rsatdi.

Shuningdek, tajriba-sinov ishlari ishtirokchilariga faoliyatlar davomida o'zlarining motivatsion faolligi, kasbiy mahoratini tahlil qilish, baholash hamda ular asosida amaldagi sa'y-harakatlarini korreksiyalash, rostlash uchun UKR kurslarining o'quv mashg'ulotlarida treninglar olib borildi, metodikalar tavsiya qilindi.

O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish maqsadida olib borilgan tajriba-sinov ishlaring mazmunini ifodalash, tahlillash natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:


- motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish nafaqat UKRga o'qituvchining munosabatini o'zgartiradi, balki butun kasbiy faoliyatining taraqqiy etishiga samarali ta'sir ko'rsatadi;

- o'tkazilgan so'rov nomida natijasida o'qituvchilarining kattagina foizi UKRga ijobiy munosabatda ekanligi ma'lum bo'ldi;

- tajriba-sinov ishlari xulosasida o'qituvchining UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishda motivatsion nazariyalarni amaliyotda qo'llash zarurati mavjudligi isbotlandi.

3.2-§. Tadqiqot asosida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari va samaradorlik tahlili

Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari asosida xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, uni amaliyotga joriy qilishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari, pedagoglarda kasbiy rivojlanishga, yangiliklarni qabul qilishga tayyorlik, motivatsiyani kuchaytirishga doir pedagogik-psixologik tadbirlarni tashkil etish, mavjud tizim imkoniyatlari va individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashga doir tavsiyalar ishlab chiqildi.



3.20-rasm. Tajriba-sinov maydonchalarini ishtirokchilari soni

Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun maydonchalar sifatida Qashqadaryo, Samarcand, Namangan viloyatlari pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari tanlab olindi va unda 620 nafar tinglovchi qatnashdi (3.20-rasm). Tajriba-sinovni o'tkazish shakli va metodlari motivatsiya hamda tayyorlik komponentlarini tadqiqlash, shuningdek, tahlillash orqali amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirish o'zaro aloqador, tadqiqot maqsadiga bo'ysunuvchi, shu bilan birga mazmuni, vazifalari, natijalariga ega bo'lgan ikkita: aniqlovchi va ta'kidlovchi hamda shakllantiruvchi va umumlashtiruvchi bosqichlarda o'tkazildi.

Aniqlovchi va ta'kidlovchi bosqichda (2019–2020-yil) XTXUKR tizimi amaliyotida mavjud resurslar, tegishli tuzilmalarning safarbarlik darajasi, birvarakayiga turli yo'nalishlarni o'zaro bog'liqligi asosida jarayonni tashkillashtirish imkoniyatlari, o'qituvchilarda motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish, ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishga faolligi holati tahlil qilindi.

Buning uchun o'qituvchilarning o'z-o'zini uzluksiz kasbiy rivojlantirish va malaka oshirish faoliyatiga ongli munosabati, yetarlicha motivga egaligi, UKRning zaruratini tan olish va his qilish, motivatsion omillarni belgilash, kasbiy ehtiyojlarini qamrab olishidan qanoatlanish, shaxsiy-kasbiy yo'nalganlik ko'rsatkichlari, o'zgarayotgan kasbiy manbalar va faoliyat mazmunidan xabardorlik, qiziqish hamda intilishlari darajasini aniqlashga qaratilgan anketa so'rovnomalari, individual suhbatlar o'tkazildi hamda amaliy jarayonni kuzatish va ta'lim tizimini me'yorlovchi tegishli hujjatlarni o'rganish ishlari olib borildi.

Natijalar tahlilidan tadqiqotning ilmiy farazini aniqlashtirish, dolzarbligini asoslash, nazariy rejulashtirish, o'qituvchining UKRga munosabatini o'zgartirish, motivatsiya nazariyalarining amaliyotdagi joriylanishi asosida motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish yo'nalishlari hamda ularning mazmunini belgilashda foydalanildi. Shuningdek, shakllantiruvchi

va umumlashtiruvchi bosqichni o'tkazish va tadqiqot uchun tegishli materiallar tayyorlandi.

Shakllantiruvchi va umumlashtiruvchi bosqichda (2021–2022-yillar) o'qituvchilarni uzlucksiz kasbiy rivojlanishga qiziqishlarni oshirish, jarayonni individuallashtirish hamda uzlucksizligiga erishish, UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning bosqichlarini aniqlashtirish, pedagogik shart-sharoitlar yaratish, komponentlarini, mazmunning tarkibiy tuzilmalarini, ilmiy-amaliy, tashkiliy-targ'ibot yo'nalishlarini belgilash yuzasidan ishlab chiqilgan tavsiyalarga muvofiq amaliy-metodik faoliyat tashkil etildi. Unga ko'ra, tavsiya etilayotgan yondashuvlarning samaradorligi, tinglovchilarda doimiy ravishda uzlucksiz kasbiy rivojlanishga qiziqishning kuchayishi, malaka oshirish hamda faoliyatiga anglangan munosabati va faolligining ortishi, motivatsion tayyorlik kompetentligining rivojlanganlik darajasi aniqlandi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirishda malaka oshirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, bir vaqtning o'zida parallel guruhlarda kuzatish olib borish imkonи bo'lмаганлиги sababli, aniqlovchi va ta'kidlovchi bosqichdagi holat nazorat guruhi, ishlab chiqilgan tavsiyalar asosidagi amaliy-metodik faoliyat davri esa tajriba guruhi sifatida o'rganildi.

Ma'lumki, pedagogika va psixologiyaga oid ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda pedagogik muammo yechimining asosiy mezoni sifatida shaxsning o'z faoliyatida yuqoriroq darajaga erishishi qabul qilingan. Shu nuqtayi nazardan uzlucksiz kasbiy rivojlanish tizimiga motivatsion-kompetentli yondashuv samaradorligini aniqlashning quyidagi mezonlarini belgiladik:

- UKR jarayonlariga o'qituvchilardagi ruhiy holatning o'zgarishi;
- o'qituvchilarning tashqi sabablarga motivatsion-ijobiy munosabati;

- o'qituvchilarda ijtimoiylashuv, jamoada ishlashning rivojlanishi;
- o'qituvchilarda hayot davomida ta'lif olish va uni ulashish darajasining ortishi;
- o'qituvchilarda ijodiy faoliyat davomiyligining aks etishi;
- o'z-o'zini takomillashtirishga motivatsion tayyorlikning ortishi.

Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari jarayonning yuqorida belgilangan mezonlar bo'yicha natijadorlikni aniqlash uchun yetarli darajada empirik ma'lumotlar toplash imkonini berdi (anketa so'rovnomalari ilovada keltirilgan).

O'qituvchilarning UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlash uchun belgilangan mezonlar quyidagi jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlardan iborat qilib shakllantirildi (3.1-jadval):

3.1-jadval.

O'qituvchilarning UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlari

Mezonlar	Ko'rsatkichlar
UKR jarayonlariga o'qituvchilardagi ruhiy holatning o'zgarishi	<ul style="list-style-type: none"> - malaka oshirish kurslarida, shuningdek, o'z-o'zini o'qitishda ijobiy his-tuyg'ularni boshdan kechirishi; - o'zluksiz kasbiy rivojlanish kurslarida o'qish uchun har qanday imkoniyatni kutishi hamda foydalanishi; - dars va boshqa UKRga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammolarni hal qilish jarayonida davomiy bosqichlarni muvaffaqiyatli bosib o'tish; - UKRga motivatsion tayyorligini his qilishi; - dalillarga suyanish emas, tushunish darajasining ortishi; - faoliyatda duch kelinadigan muammolarga yechim topa olishida ijobiy dinamikaning mavjudligi.
O'qituvchilarning tashqi sabablarga motivatsion-ijobiy munosabati	<ul style="list-style-type: none"> - o'z-o'zini namoyon qila olish; - maqsadga erishish jarayonidagi motivning kuchliligi; - maktab ma'muriyati tomonidan taqdim qilingan turli darajadagi imtiyoz va rag'batlarga ijobiy munosabatda bo'lishi; - individual kasbiy-lavozim trayektoriyasini tuzish va samimiylariga harakatlanish; - faoliyatiga ongli munosabat va o'z missiyasini his qilish; - kasbiy qiyinchiliklarini tushunish; - faoliyatidan maqsadini anglash va uni ijtimoiy voqelik bilan bog'lay olish; - kasbiy, ijtimoiy, bilish motivlarini o'z ehtiyoj va kutilmalariga moslay olish.
O'qituvchilarda ijtimoiylashuv, jamoada ishlashning rivojlanishi	<ul style="list-style-type: none"> - shaxslararo ko'nikmalarning va jamoada ishlashning faollashuvi; - jamoaviy muhit, o'qituvchi-o'qituvchi, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarining boyishi;

	<ul style="list-style-type: none"> - zaruriyatga ko'ra individual shakldagi metodik yordamdan foydalanish; - hamkasblari tajribasi bilan tanishishga intilish; - o'qituvchilar guruhida interaktiv o'qishni afzal bilish; - kutilmagan, noodatiy va muammoli vaziyatlarda ongli ravishda optimal qaror qabul qila olish; - hamkasblar bilan faol o'zaro ta'sirga kirisha olish; - o'quvchilar bilan til topishish, kommunikativlikni qo'llab-quvvatlash; - o'zaro munosabatlarda tolerantlik.
O'qituvchilarda hayot davomida ta'lim olish va uni ulashish darajasining ortishi	<ul style="list-style-type: none"> - o'zining kompetentsizlik sohalarini aniqlashi va shaxsiy-kasbiy sifatlarining rivojlanishi; - uzlusiz o'qib o'rghanishga ijobiy munosabat va faoliyatida amal qilishi; - o'z-o'ziga yo'naltirilgan ta'limning amalga oshishi; - bilish faoliyatining shakllanganligi, jarayonga safarbarlik holati; - o'z tajribalarini ommalashtirishga bo'lgan intilishning mavjudligi; - uslubiy materiallarini nashr ettirishi; - o'z taqdimotlarini tayyorlashda malaka oshirish kurslari, hamkasblari bilan kasbiy muloqot, konferensiya resurslaridan foydalanishi.
O'qituvchilarda ijodiy faoliyat davomiyligining aks etishi	<ul style="list-style-type: none"> - yangi pedagogik texnologiyalarni doimiy ravishda o'zlashtirishga ehtiyojning mavjudligi; - zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar va innovatsiyalarni tahlil qila olish hamda tushunish; - o'zidagi mavjud bilimlarni yangi bilimlarga uyg'unlashtira olishi; - o'z individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalay olishi; - turli loyihalarda faol ishtirok etishi; - tanqidiy va ijodiy tafakkurning rivojlanishi; - uzlusiz kasbiy rivojlanish sohasini doimiy kengaytirib borishga motivatsion tayyorligi.

<p>O'z-o'zini takomillashtirishga motivatsion tayyorlikning ortishi</p>	<ul style="list-style-type: none"> - pedagogik mahorat ustuvorligining ortishi; - mukammal qiyofa, tashabbuskorligi, maqsadga intiluvchanligi; - malaka oshirish kurslaridan olgan BKMLarni amaliyotda faol qo'llashi; - hamkasblariga metodik yordam ko'rsatishi; - ijodkorlik, o'z faoliyatini loyihalay olishi; - o'zgarishlarga ochiqlik, moslashuvchanlik, fikrlash tezligining ortishi; - o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalariga egalik; - muvaffaqiyatli faoliyat olib borish mezonlarini o'zi belgilay olishi.
-------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

